



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024, № 4

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboyn BEGIMQULOV
Xolboyn IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOVA
Zulfizar KARIMOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **R.G'.Safarova**
Mutafakkir ajdodlarimiz va xalq donishmadlari tomonidan yaratilgan tarbiya modelidan foydalanish imkoniyatlari
- 8 **M.E.Inoyatova**
Adabiyot ta'limi texnologiyalari
- 13 **Sh.Fayzullayev**
Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda o'qitish metodlarini loyihalashtirish vositasida innovatsiyon ta'limga aylantirilishining ba'zi usullari
- 18 **I.Atkov**
«Tarbiya» fanini o'qitishda pedagogik-metodik mahorat
- 22 **I.X.Turdiyev**
Talabalarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslari
- 26 **M.T.Umaraliyeva**
Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv – loyihalarni tashkil etish
- 30 **F.B.Ibragimov**
Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda o'qitishning dadaktik vositalari majmuidan foydalanish
- 34 **N.A.Yakubjonova**
Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari
- 39 **U.X.Xonqulov, X.A.Abdullayeva**
Trigonometriyani genetik yondashuv asosida o'qitishning metodik tizimi xususiyatlari
- 45 **K.A.Mo'minova**
Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalari asosida rivojlantirish
- 50 **P.X.Джуроев**
Подготовка педагога к преемственности дошкольного и начального школьного образования
- 56 **С.Ф.Салимова**
Основы квалиметрии в образовании: методологический обзор

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 61 **Y.A.Kuziboyev**
Talabalarni o'qitishda uzluksiz ta'lim tizimida virtual usullarni qo'llash jarayonida sharq mutafakkirlari merosini o'rganish

MA'NAVIY TARBIYA

- 65 **G.A.Samandarova**
Bola ma'naviyatini shakllantirishda «Guruh soatlari»ni tashkil etish
- 72 **D.I.Choriyeva**
Art-pedagogikaning o'quvchi-yoshlar rivojlanishidagi o'rmi

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 78 **X.G.Ostonova**
Malaka oshirish institutlarida ta'lim sifatini baholash va bosqarish mexanizmlarini takomillashtirish
- 82 **B.O.Saliboyeva**
Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish
- 87 **X.N.Agaliyeva**
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning o'quv-metodik ta'minoti
- 92 **B.P.Джуроев, Д.Зуфарова**
Повышение профессионализма педагога в ДОУ
- 98 **M.X.Азимова**
Совершенствование коммуникативной толерантности у студентов как важная педагогическая категория
- 103 **H.A.Алимова**
Развитие у учащихся устойчивого интереса и навыков к физической культуре
- 107 **M.F.Xakimova**
Ta'lim raqamlashtirish sharoitida o'qitishning samaradorligini oshirish



MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZ VA XALQ DONISHMANDLARI TOMONIDAN YARATILGAN TARBIYA MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

R.Gʻ. SAFAROVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti boʻlim mudiri, p.f.d., professor*

Mazkur maqolada uzluksiz taʼlim jarayoni subyektlari uchun alohida qimmatga ega boʻlgan pand nasihatlar, mutafakkir ajdodlarimiz va xalq donidhmandlarining qarashlari, davlat va jamiyatning taʼlim-tarbiya jatayoniga qoʻygan ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqqan holda bayon qilingan. Mazkur fikrlar va yondashuvlar yordamida oʻquvchi va talabalarni tarbiyalalash yoʻllari koʻrsatilgan. Tasavvuf taʼlimoti namoyondalari, mutafakkirlar hamda xalq pedagogikasida davr sinovidan oʻtgan fikrlarini tarbiyaviy jarayonlarga tadbiiq etish imkoniyatlari ochib berilgan. Shunga koʻra maqola ilmiy pedagogik jamoatchilik, ota-onalar va oʻqituvchilar uchun alohida ahamiyatga ega.

Tayanch soʻzlar: tarbiya, oʻquvchi, talaba, ota-ona, donishmandlar, mutafakkirlar, ajdodlar, tarixiy tajriba, xalq donishmandligi, axloq-odob, fikr.

В данной статье описаны советы, имеющие особую ценность для субъектов непрерывного образовательного процесса, взгляды наших мыслящих предков и народной интеллигенции, а также социальный заказ государства и общества на образовательный процесс. С помощью этих идей и подходов показаны пути обучения школьников и студентов. Проявления суфизма, мыслители, народная педагогика раскрыли возможности применения их проверенных временем идей в образовательном процессе. Соответственно, статья имеет особое значение для научно-педагогической общественности, родителей и педагогов.

Ключевые слова: образование, ученик, ученик, родители, мудрецы, мыслители, предки, исторический опыт, народная мудрость, этика, мысль.

In this article, the advices of special value for the subjects of the continuous education process, the views of our thinking ancestors and people's intellectuals, and the social order of the state and society on the educational process are described. With the help of these ideas and approaches, the ways of educating pupils and students are shown. Manifestations of Sufism, thinkers, and people's pedagogy have revealed the possibilities of applying their time-tested ideas to educational processes. Accordingly, the article is of special importance for the scientific and pedagogical community, parents and teachers.

Key words: education, pupil, student, parents, sages, thinkers, ancestors, historical experience, folk wisdom, ethics, thought.

Azal-azaldan tarbiya sharq xalqlarining ustuvor maqsadi hisoblangan. Shunga koʻra har bir mamlakat, har bir hududda yosh avlod tarbiyasi umumxalq harakati, umummilliy ishga aylangan. Bu harakatning yetakchilari ham tashkilotchilari ham davlat boshliqlari,



amirlar, mutafakkirlar hamda olimu fuzalolar bo'lishgan. Mazkur jarayonda davlat va jamiyat o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yoshlarga pand nasihat qilib, zarur hayotiy bilimlar va o'g'itlar bergan. Bu pand nasihatlar, o'g'itlar va hikmatlarda bugungi kundagi ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mazmun-mohiyati ifodalangan. Hikmatlarda bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mohiyatiga mos keladigan fikrlar ifodalangan. Shu bilan bir qatorda, mazkur o'g'it va hikmatlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun ahamiyatligi bilan xarakterlidir. Mutafakkir shoir A.Navoiy odamiylik axloqi, insonparvarlik mezonlari haqida fikr yuritgan bo'lsa, shoh va shoir Bobur vatan sog' inchi, xalqning g'am tashvishini o'lmas satriklarda ifodalagan. Boburning «Bobumoma»si ruboiy va g'azallari vatanparvarlik tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega. Shoh Xusrav ham aqliy tarbiya haqida o'z qarashlarini bayon qilgan. Jumladan, «aqli odam yovuzlikdan qochadi». Ajdodlarimiz aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratganlar. Muhibiddin Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Aziziddin Nasafiy, N.Kubro, Abdulholiq G'ijdivoniy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshbandlarning har biri aqliy hamda aqliy-ma'naviy tarbiyaga oid ulkan merosd qoldirganlar. Shuning uchun ham ilm-u urfonni qadrlagan hukmdorlar ularga qo'l berib, murid bo'lganlar. Masalan, Amir Temur Sayyid Baraka, Bobur mirzo Xoja Axror Valiydan, Jaloliddin Manguberdi esa Najmiddin Kubrodan aqliy-ma'naviy quvvat olgan. Anushervonu Odil (Eron shohi, 531-579-yillar) o'g'li Xurmuzga nasihat qilib, rivojlanayotgan har bir shaxs, shu jumladan, o'smir yoshdagi o'quvchilar saqlanishi lozim bo'lgan quyidagi illatlarni alohida ajratib ko'rsatadi: «Kerilish va o'zini katta tutish quyidagi illatlarni keltirib chiqaradi. 1. Mensimaslik xalq nafaratiga yo'liqtiradi. 2. Odamlarni taftish va tadbiiq qilib, o'zi kasb hunarga ega bo'lmaslik, odamga dashnom berish. 3. O'qishdan or qilib ilm adabdan bebahra qolish. 4. Jamoada o'zini barchadan ustun va dono tutish. Dushman orttirish va obro'yini to'kish. 5. Manmanlik tufayli chegaradan chiqish, baland amalga intilish natijasida xor-uzor bo'lish, o'z martabasidan ham ajralib qolish. 6. Odamlarning haq-huquqini hummat qilmaslik, bemorlardan hol so'ramaslik. 7. Odamlarga xavf solish, ulami masxara qilish natijasida beqadr bo'lish. 8. Maslahatsiz ish tutish natijasida xijolat va nadomat chekish. 9. Odamlar meni ulug' deb biladi deb o'ylash va gumonda bo'lish. 10. Fozil va komil kishilarga quloq solmay, haqorat ko'zi bilan qarash natijasida el nazaridan qolish kabilar».

Ajdodlarimiz yaxshi yashash qoidalarini ham ko'rsatib o'tganlar. Ular «salomat bo'lish, xotirjam yashash, yaxshi nom qoldirish, abadiy yashashdir degan prinsipga amal qilib o'z faoliyatlarini amalga oshirganlar» (Buzurgmehr, «Donolar suhbat»). Mutafakkir ajdodlarimizdan bugungi yosh avlod, ayniqsa, o'quvchi va talaba yoshlar uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan o'g'itlar qolgan. Jumladan, Anushervonu Odil mazkur o'g'itlar yosh avlodga yuksalish, buyuklikka intilish, aql idroki va bilimini yaxshilik yo'lida sarflash yo'lini ko'rsatib beradi. Ular Anushervonu Odil ta'kidlaganidek, ular «agar har kishini hayotning o'zi mulla qilmasa, hech bir dono unga aql o'rgatish uchun zahmat chekmasin, zahmati behuda ketadi». Ko'rinib turibdiki, har bir inson uchun ta'lim tarbiya



va ijtimoiy tajriba eng muhim vosita sifatida xizmat qilar ekan, «har kishining ilmu bo‘lsayu, lekin unga loyiq aqli bo‘lmasa, bu ilmning unga hech qanday foyasi bo‘lmaydi». Demak, egallangan bilim aql bilan ishlatilganda samarali bo‘ladi.

O‘quvchilarni juda yoshlikdan boshlab, bir-birlari va davlatning sirini saqlashga o‘rgatish lozim. Shundagina ulardan sadoqatli do‘st, vatan fidoyisi yetishib chiqadi. «Agar sirning ochilishini xohlamasang, birovning sirini ham fosh qilma». Chunki ikkonchi taraf ham birinchi tarafning harakatiga munosib javob qaytarishi aniq. «Sirningi dushman bilmasin desang, do‘stingga ham aytma». Mutafakkir ajdodlarimiz so‘zlash odobi bilan bir qatorda, sir saqlash odobining axloqiy mezonlarini yaratganlar. Bugungi kunda oila ham jamiyatda ham shaxslararo munosabatlarning buzilishiga yoshlarda sir saqlash odobining yetishmasligi, birovning sirini bo‘rttirib, qo‘shib-chatib uchinchi odamga yetkazish odatlari sabab bo‘lmoqda. Bu tufayli kelib chiqadigan kelishmovchiliklarning aksariyati o‘quvchi va talabalar qizlar hamda pedagogik jamoa orasida kuzatilmoqda. «Agar odamlarning sevimlisi bo‘lishni istasang, ulardan hech narsani ayama» (Anushervonu Odil, "Donolar suhbatlari»). Saxiylik, jo‘mardlik, har bir shaxsning jamiyatda obro‘ – etiborga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunday sifatni o‘quvchi va talaba yoshlarda shgakkllantirishda tarixiy merosimiz muhim vosita vazifasini o‘taydi. Chunki, donishmand bobolarimiz o‘quvchilarning ong osti sohasiga tez ta‘sir ko‘rsatib, ularni oliyjanoblik ruhida tarbiyalaydigan bunday didaktik vositalarni ko‘plab yozib qoldirganlar. Ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishlaridan qat‘i nazar yosh avlod tarbiyasi ularning faoliyatida muhim o‘rin egallab, hayotining uzviy qismiga aylangan.

Mutafakkir ajdodlarimiz insonlarning faoliyat ko‘rsatishlari uchun uch narsa muhimligini alohida ta‘kidlab o‘tganlar. Bular «1) har ishni avval chuqur o‘ylab, keyin hukm chiqarish; 2) har ishni yo‘lga soladigan yoki quvvatini qaytara oladigan choratadbirlarni ko‘rib qo‘yish» zarurligini uqtirganlar. Bu fikrlar alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarni mulohazali bo‘lishga, chuqur o‘ylab ish ko‘rishga da‘vat etadi. Chunki bugungi kunda, ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda qiziqqonlik, shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilish, uning oqibatlarini aniq tasavvur qila olmaslik holatlari tez-tez uchrab turibdi.

Donishmand ajdodlarimiz kasbiy yuksalish etikasi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Ular kasbiy faoliyat jarayonida uch narsadan saqlangan odam martabaga erishishini ko‘rsatganlar. «1) yolg‘on so‘zlagan odam xor va bebro‘ bo‘ladi. Kimki yolg‘onchi bo‘lsa el nazdida beburddir. 2. Boshlig‘ining huzurida uni ta‘rifu tavsif qilmaslik. 3) g‘iybatdan yiroq bo‘lish». Bugungi kunda mansab kursisiga o‘tirish, mo‘may daromad topish uchun halol, yuqori malakalilarga bo‘hton yog‘dirib, ularni obro‘sizlantirish lavozimga erishilayotganlarning ko‘pi el nazaridan qolayotganligi bu fikrlarning qanchalik hayotiyiligi, o‘quvchi va talaba yoshlarda martabaga halol yo‘l bilan, ilm egallash orqali erishish lozim ekanligini uqitishga xizmat qiladi.

Donishmand faylasuf Arastu shunday deb yozgan edi: Odamlar yemoq uchun yashasalar men yashamoq uchun yeyman. Ushbu fikrlar ochuo‘zlik va



molparatlikka berilmasdan o'z ehtiyojiga yarasha ozuqa g'amlash, tabiat in'om etgan ne'matlarini isroq qilmaslik, uning jamiyat a'zolari orasida teng taqsimlanisha imkon berish odobini o'quvchi yoshlarda shakllantirish lozimligini o'qituvchilar va ota onalar ongiga yetkazish zarurligini ko'rsatadi.

Mutafakkir bobolarimiz nodonlik belgilarini ham ko'rsatib mazkur illatdan saqlanishga, muomala va so'zlash odobiga har doim har bir joyda rioya qilishga chaqirganlar. Jumladan «birov gapini tugatmasdan gapga aralashadigan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkor qiladigan odam bo'lmaydi. Sukut buyuk donoliktir.» (Luqmoni hakim. Luqmoni Hakim hikmatlari). Xalq donishmandlari hamda mutafakkirlar Jaloliddin Rumi, Najmidin Kubro, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiylar yoshlarni muttasil ilmu hunar o'rganishga da'vat qilib, bunga o'zlari ham amal qilganlar. «Hunar o'rganinglar oltin kumush safarda xatari, hunarning o'zi qaynar buloq, tugamas davlatdir. Xunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi.» (Xalq donishmadlari) O'quvchi yoshlarni hunarga o'rgatish maqsadida Alisher Navoiyning «Yo'q hunari yolg'uz esa yuz kishi, qayda sonida yolg'uz kishi» hikmati ham alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ayrim dunyoqarashi tor ota onalar «qizlar hunar o'rganishi shart emas» degan fikrda qat'iy turadilar. Bunday kishilarning qiz farzandlari mustaqil hayotga qadam qo'ygach turli qiyinchiliklarga duch kelib, turmush sinovlari oldida chorasiz qolib xatto tilanchilik qilishga majbur bo'lmoqdalar. Pedagoglar, maktab psixologlari hamda mahalla faollari ota-onalarga tushuntirish ishlarini amalga oshirishlari, tizimli tarzda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishlari lozim.

Hadisu shariflar, mutafakkir ajdodlarimiz hamda tasavvuf namoyondalarining badiiy didaktik xarakterdagi asarlarida nafs tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki barcha davrlarda nafs insonlarning eng katta dushmani, xalokatga yetaklovchi salbiy omil bo'lgan. Shuning uchun ham tasavvuf ta'limoti namoyondalari nafsning turlarini farqlab, nafs tarbiyasining rivojlanish bosqichlarini ko'rsatganlar. Hadisu sharifda shunday deyilgan: «Eng katta dushmaning ikki kifting orasida joylashib olgan nafsingdir. «Shunga mutanosib tarzda xalq donishmandlari: «nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang adovatini shuncha oshiradi» degan dono fikrlarni ko'p marta takrorlaganlar.

Luqmoni hakim shaxsda shakllangan ijobiy sifatlar qachon sinovdan o'tishini ko'rsatib o'tgan edi. «Chidam boshga kulfat tushganda, botirlik kurashda, do'stlik unga hojat tushganda bilinadi» (Luqmoni hakim hikmatlari). Shuning uchun ham ota onalar, o'qituvchilar, maktab psixologlari, sport murabbiylar o'quvchilarda ijobiy sifatlarini qay darajada shakllanganligini turli imitatsion vaziyatlarni yaratgan holda sinab ko'rishlari, bunday vaziyatlarga ko'proq o'smir yoshdagi va 10-11-sinf o'quvchilarni jalb etishlari kerak.

Shayx Sa'diy yoshlarga qarata: «Go'zal xul atvoring, odobing bilan uni (dushmaningni uyaltir)» – deya da'vat qilish bilan o'quvchi hamda talaba yoshlarni namunali axloq egasi bo'lishga chaqiradi. Luqmonu Hakim esa mahmadonalikdan sukut afzaligi, ortiqcha so'zlash insonning o'ziga zarar yetkazishini, o'zidan keyingi avlodga



nasihat qilib qoldirgan. «Ey o‘g‘il, odamlar so‘zga ustamonliklar bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtangin» u o‘z fikrlarni davom ettirib quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tgan. Har narsaning dalilil bor, aqlining dalili fikr, fikrning dalili sukutdir». Ko‘rinib turibdiki, donishmand bobomiz sukut aql, mulohazalilik bo‘lish, insonlarga xos fazilat ekanligi, keraksiz so‘zlarini gapirishdan saqlanish, donolik, hurfikrlilik mahsuli ekanligini anglatishi lozimligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan. Arastu esa yoshlarga qarata quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: «iloji boricha o‘zingga dushman ortirma, biror kishi senga dushmanlik ko‘rsata boshlasa, sen unga marhamat nazari bilan qara, dilnavoz bo‘l, shu bilan u kishi do‘slaring qatoridan joy oladi. Do‘stlaringni shafqat va marhamating bilan sarafroz qil, ular sendan ajralmay, samimiy do‘slaring bo‘lib qoladilar. Yolg‘onchi kishidan vafokutma, to‘g‘ri so‘z ko‘nglingga qattiq va achchiq tegadi. Odam yaxshilik qilganga yaxshilik qiladi. Bir yaxshilikka o‘n hissa yaxshilik qaytaradi. Kimning asli pok, sof, u odam elga manfaat yetkazadi.» Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar orasidagi turli ziddiyatlarni bartaraf etish, ular orasida o‘zaro hamkorlikka asoslangan do‘stona munosabatlarni kengaytirishda mazkur fikrlar alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Mutafakkirning ushbu so‘zlari ustoz murabbiylar va ota onalar hamda ilmiy pedagogik jamoatchilik uchun dasturil amal vazifasini o‘taydi. Shu ma’noda:

Har yigit qizga kerakdir ruhafshon tarbiyat

Aylagay orzu umidlarni muhayo tarbiyat (Luqmonu Hakim)

Ko‘rinib turibdiki, mutafakkir ajdodlarimiz bundan bir necha yuz yilliklar oldin axloq odob tarbiyasining haqiqiy modelini yaratganlar. Ushbu modelning pedagogik ahamiti bugungi kunda har qachongidan ortmoqda. Buning asosiy sababi O‘zbekiston davlati va jamiyatining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yo‘nalishidagi ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish zaruriyati bilan bog‘liq holda ushbu modeldan keng foydalanish e’tibor qaratilganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. - Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2016.
2. Sa’diy Sheroziy. Hikmatga to‘la olam. - Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2007.
3. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. - Samarqand: SamDU, 2008.
4. Ochilov E. Donolar suhbatlari. Hikoyat va rivoyatlar olami. T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2019.
5. Sobitaliyev M. 565 Luqmoni Hakim o‘g‘itlari va aforizmlar. T.: «Adabiyot uchunlari» nashriyoti, 2017.
6. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. - Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2009.
7. O‘rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi. - Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016.



ADABIYOT TA'LIMI TEKNOLOGIYALARI

M.E. INOYATOVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti innovatsion loyiha rahbari, p.f.n

Ilg'or texnologiyalar; didaktik o'yinlar; guruhlar tarkibida ishlash, muammoli yo'naltirilgan testlar adabiyot fani doirasida innovatsiyalarni tatbiq etish imkonini berib, o'qitish uslubini demokratlashtirish, yangiliklarga, originallikka, testni ishlab chiqqan o'qituvchi va uni yechayotgan o'quvchining ham kommunikativ, ham mantiqiy, ham semantik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, maqolada turli ta'lim texnologiyalar taqdim etilib, ular ko'magida ta'lim sifatini ta'minlash maqsadi nazarda tutiladi.

Tayanch so'zlar: Kvest texnologiyasi, muammoli yo'naltirilgan testlar; ijodkorlik, adabiyot o'quv predmeti, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari.

Передовые технологии, дидактические игры, работа в группах, проблемно-ориентированные тесты позволяют реализовать новшества в области литературоведения, демократизировать метод обучения, новаторство, оригинальность преподавателя, разработавшего тест, и ученика, его решающего, служит развитию, как коммуникативная, логическая, так и смысловая культура. Соответственно, в статье представлены различные образовательные технологии с целью обеспечения качества образования при их поддержке.

Ключевые слова: квест-технология, проблемно-ориентированные тесты, творчество, литературный предмет, взаимоотношения учителя и ученика.

Advanced technologies, didactic games, group work, problem-oriented tests make it possible to implement innovations in the field of literary criticism, democratize the teaching method, innovation, originality of the teacher who developed the test and the student who solves it serves development. both communicative, logical and semantic culture. Accordingly, the article presents various educational technologies with the aim of ensuring the quality of education with their support.

Key words: quest technology, problem-oriented tests, creativity, literary subject, relationship between teacher and student.

Kvest texnologiyasi o'yinli texnologiyalarning o'ziga xos turlaridan biri hisoblanadi (uning ingl. tilidan tarjimasini ham shundan darak beradi: quest – izlash, izlanish, adventure – sarguzasht, yoki «sarguzashtlarni izlash» yoki «o'yin-sarguzasht»). «Kvest» pedagogika fanida tadqiqotchilik faoliyatining tashkiliy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi, vazifani bajarish uchun o'quvchilar ma'lumotlarni ko'rsatilgan manzildan izlab topadilar. Kvestda ishtirokchilarga bir qator harakatlar ketma-ketligi taklif etiladi, ularni bajarish orqali ishtirokchi aniq bir narsa haqida yangi bilimlarni egallaydi. Ta'lim jarayonida turli



matn va hujjatlarni izlab topish imkonini beruvchi axborot texnologiyalarini keng qo'llash orqali kvestdan foydalanish imkoniyatiga erishiladi. Quyida o'zlikni anglashga qaratilgan kvest-texnologiyaga misol keltiramiz: «Jaloliddin Rumiyning quyidagi misralari xalq o'rtasida juda mashhur: «Yo asling kabi ko'rin, yoki ko'ringaning kabi bo'l» yoki Abdulla Qahhoming «O'g'ri» hikoyasiga epifraf qilib berilgan «O'tning o'limi – itning bayrami» maqoli orqali yozuvchi nima demoqchi?».

Birinchi harakat: «Internetdan ulug' ijodkorlar ularni qanday ma'noda qo'llagani haqidagi ma'lumotni izlab toping». Qisman yoki to'liq ma'lumot mavjud bo'lgan materiallar izlab topib o'rganiladi.

Ikkinchi harakat: «Bu iborani ijtimoiy hayotga nisbatan ham qo'llab bo'ladi?» Vaziyatga oid ma'lumotlar ijodiy tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.

Uchinchi harakat: «munofiqlik» va «asliyat» hamda «o'g'rilik va to'g'rilik» tushunchalarini o'zaro solishtiring», «Sizningcha, munofiqlik qanday hollarda ko'zga tashlanadi?», «Korrupsiyani yo'qotish uchun nima qilish kerak?» Rumi va A.Qahhorlarning yondashuvi asosida «asl, to'g'ri inson» tushunchasining mazmun-mohiyati asoslanadi, tayanch tushuncha haqida bilim egallanadi.

Ta'limda yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga mutanosib o'rgatuvchi o'yinlarning turli faol shakllari qo'llaniladi. O'yinlarning turli variantlarini ishlab chiqishda ularning metodik mazmunini, o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishini e'tiborga olish lozim. O'rgatuvchi o'yinlar o'tkazish tajribalarining ko'rsatishicha, uning mohiyatini bilmaslik, ko'pvariantlilikdan foydalanmaslik, to'g'ri metodik instrumentariyni topa bilmaslik o'yinning sifatli qo'llanilishini cheklab qo'yadi. Bunday holatda o'yin o'z salmog'ini yo'qotadi, uning samaradorligi yoki juda quyi darajada, yoki umuman bo'lmaydi. Ta'lim jarayonidagi o'yin metodida tashqi olam go'yo ikkilantirilgandek tuyuladi, bu ikkilanish ham sun'iy, ham real ko'rinishga ega bo'ladi. Real borliq tushunchasi bunda muayyan ma'no kasb etadi: o'yin jarayonida vujudga keltirilgan real olamda obyekt va munosabatlar yaratiladi, albatta, inson fantaziyasi va maqsad birligi bo'lmasa, ularni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu bilan birga, bu olam real mohiyatga ega, chunki u haqiqatan ko'z o'ngimizda obyektiv gavdalanib turadi. Sun'iy olam inson tomonidan virtual reallik sifatida tarkib toptiriladi, unda obyektlar, munosabatlar, jarayonlar mavjud ijtimoiy borliq obyektiga ko'rgaznali-obrazli mos kelishi, ularni ramziy taqdim etishi lozim. Faraz qilaylik, o'yin bunda modellashtirish metodining modifikatsiyasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, lekin o'yinda insoniy munosabatsiz obyekt o'z-o'zidan modellashtirilmaydi. O'yinda insonning ishtiroki, uning boshqa obyektlar va kishilar



bilan munosabati modellashtiriladi. Olamning ikkilanishi va o'rganilayotgan vaziyatning maqsadli tashkil etilishi ijodiy izlanish imkoniyatlarini kengaytiradi, chunki bu jarayonda xatolar jiddiy qabul qilinmaydi (chunki o'yin baribir o'yinda!), bundan tashqari o'yin ishtirokchiga maqbul yechimni taqdim etish imkonini beradigan qiziqarli jarayondir. Sun'iy tashkillashtirilgan ushbu jarayonda o'z rolini ado etar ekan, o'quvchilar o'zlarining yashirin evristik layoqatlarini ishga solish imkoniga ega bo'lishadi. O'yin innovatsion texnologiyalari vositasida ular u yoki bu yo'nalish (maktab), ijtimoiy-gumanitar konsepsiyani yoqlovchi yoki uni tanqid etuvchi rolida chiqib, o'z imkoniyatlarini ishga solishadi. Ushbu texnologiyaning ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi uchun turli konsepsiyalar bo'yicha axborotlar olishga qaratilgan informatsion texnologiyalar o'quv jarayoniga keng joriy etilishi zarur. Topshirilgan vazifalarni mustaqil ijodiy yechishni ta'min etuvchi kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik innovatsiyalar o'zida bir qator qiyinchiliklarni jamlaydi. Bunday qiyinchiliklarga, jumladan, ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik qiyinchiliklarni ham kiritish mumkin. Xususan, shu kabi texnologiyalarning qo'llanilishi sababli tafakkurning nostandart uslubini egallagan o'quvchi boshqa kishilar bilan muloqotda katta qiyinchilikni his etishi mumkin, ayniqsa, eskicha stereotip fikrlaydigan suhbatdosh bilan suhbatlashish unga juda katta qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli adaiyot o'qituvchisining zimmasida juda salmoqli vazifa – ijodiy fikrlaydigan insonni shakllantirish bilan birga, o'z fikriga ega, fikrlarini zamonaviy fan yutuqlari asosida dalillay biladigan mutaxassislarni tarbiyalash vazifasi ham turadi. Ma'lumki, innovatsion shakl va metodlar – kompetentsiyalarni shakllantirish metodlari yoshlarda faoliyatning turli jabhalarida ish yurita olish layoqatini maksimal darajada tarkib toptirishi, shaxsini o'zligini namoyon etishi, mustaqil mahsuldor kasbiy faoliyatga tayyorlashi zarur.

Adabiyot darsida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: ushbu darslarda kompyuterdan foydalanish o'quv materialini modellashtirish, uni vizual shaklda tasavvur qilish imkonini beradi.

Taqdim etilgan shartli grafik modellar asosida gapni konstruksiyalash, tahrirlash mashqlari, yozilganlarni yanada mukammallashtirish kabilarni asar voqealari rivojini chuqurroq o'rganish, o'quvchilar diqqatini jalb etish imkonini beradi. Ta'limga tabaqalashgan yondashuvni samarali amalga oshirish uchun boshqa fan o'qituvchilari bilan integrative ishlash lozim. Bunday o'zaro faol muloqot kerakli ma'lumotlarni topishda qo'l keladi. O'z navbatida, ushbu ma'lumotlardan ilmiy-amaliy konferentsiya va seminarlarda chiqishlar qilishda ham foydalanish mumkin.



O'qituvchi ustoz sifatida o'quvchiga o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z intellektual-ijodiy imkoniyatlarini safarbar qilishga ko'maklashadi. O'qituvchining vazifasi – har bir o'quvchiga o'z imkoniyatiga yarasha kompetentlikni o'zlashtirish yo'lini tanlab olishi va shu yo'lda og'ishmay olg'a borishi uchun tegishli muhitni ta'minlashdan iborat. Bu o'quvchining o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etishiga, oxir-oqibat ta'limni individuallashtirishga yordam beradi.

Adabiyot ta'limining asosiy vazifalaridan biri yoshlarda og'zaki va yozma nutq savdaxonligi va kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishdan iborat. Bu borada yutuqqa erishish uchun boshlang'ich sinfdan boshlab darsga ijodkor o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan «O'zgaruvchan tarkibli sheriklar bilan ishlash texnologiyasi»ni tatbiq etish zarur.

Quyida ushbu texnologiyani keltiramiz:

Ekspress- testlar texnologiyasi. Ekspress -testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Ekspress-testlar odatda shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlaridan yoki testlardan iborat bo'ladi. Ekspress-testlarni darsning ichida qisqa vaqtlarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilar DTS minimal talablarini o'zlashtirganliklarini tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

O'quvchilarning o'zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig'ilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash o'qituvchilar uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldiring
2. Jumlaning ma'nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so'zlardan mosini tanlang va tagiga chizing
3. To'g'ri javobni toping
4. Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping
5. Quyida keltirilgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing
6. Asar mazmunidagi voqealar talqiniga ko'ra jumlaning davom ettiring
7. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqindan mosini qo'ying
10. Andazaga ko'ra matn tuzing



11. Ijodiy bayon yozing.

«Kungaboqar» texnologiyasi. O‘quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o‘quvchi egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Afsuski, kichik yoshdagi o‘smirlarning aksariyatida kommunikativ kompetentlik quyi darajada shakllangan bo‘lib, bu esa ushbu muammoning metodik aspektlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Kommunikativ-faoliyatli yondashuvga asoslangan metodik tizim ularda kommunikativ va til kompetent-siyasini tarkib toptirishga, ularda tilni his etishga qaratilgan estetik tuyg‘uni o‘stirishga qaratiladi. Chunki yoshlarda muloqot madaniyati samarali shakllangandagina ular istiqbolda yuksak kasbiy natijalarga erisha oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Елизова, Е. А. Смыслы гуманитарного образования в условиях инноватики / Е. А. Елизова // Молодой ученый. - 2010. - №4. - С. 326-329.
2. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004.
3. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар.(назария ва амалиёт). - Т.: Молия, 2001. - 171 б. - 70-б.



texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologiya zamirida muammo (yoki bir-biriga bog‘liq bo‘lgan muammolar zanjiri) yotadi.

Muammoli ta‘lim metodiga asoslangan ta‘lim jarayoni quyidagicha 4 ta muammoli vaziyat hosil qiladi:

- muammolarni shakllantirish va ularni yechishni taxmin qilish;
- taxmin qilingan yechimni tekshirish;
- amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo‘llash;
- ularni tartibga solish va sistemalashtirish kabi bosqichlarga ega.

Talaba muammoni yechar ekan, o‘zi uchun juda muhim bo‘lgan «kashfiyot qiladi». Bu talabada o‘ziga ishonch yaratadi. Ta‘limda an’anaviy o‘qitish metodiga qaraganda muammoli ta‘lim metodining ustunligi yaqqol seziladi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonlarini loyihalash muammoli o‘qitish metodiga tayanishi istikbollidir. Ma‘lumki, ta‘lim jarayonlarini loyixalash zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarga (eksperimental psixologiyaga tayanuvchi), muammoli ta‘lim esa an’anaviy o‘qitish metodikasiga (klassik psixologiya va pedagogikaga tayanuvchi) asoslanadi. Ijodiy va loyihalash metodlari ham muammoli ta‘lim metodlariga kiradi. Ta‘lim jarayonlarini loyihalash bevosita muammoli ta‘limni qo‘llashga va, aksincha, muammoli ta‘lim ta‘limni loyixalashga olib kelishi tasdiklanadi. Natijada an’anaviy o‘qitish metodikasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta‘limda o‘zaro kirishib ketishi kuzatiladi.

Ta‘lim jarayonlarini loyihalash natijasida differensial va individual yondashuv xamda o‘quvchi (talaba)larning hamkorlikda ta‘lim olishlari samarasi sifatida har bir ta‘lim oluvchining ta‘lim va ta‘lim natijalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga ta‘lim oluvchi shaxsiga munosabat va ta‘lim beruvchilarning vazifalari aniq qayd qilinadi. Ta‘lim jarayonlarini bunday-loyihalash ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarning ish rejalarini umumlashtiradi, ularga aniqlik kiritadi va ta‘lim-tarbiya olib borishda qulaylik yaratadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ta‘lim texnologiyalari va loyihalashtirish maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun:

–pedagogik jarayonni loyihalash (nima ma‘lum ekanini bilib, ma‘nosini tushunib uni hal etishga intilish)

– motiv (ehtiyoj, manfaat, maqsad, qiziqish)

– jarayon(vosita, yo‘l, usul, faoliyat) kabi tushunchalar shakllanadi.

Yuqorida qayd etilgan nazariy-ilmii fikrlarni amaliyotda tadbiiq etilib kelinayotganligini Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston – Finlandiya



pedagogika institutining 1-boskich magistrantlari bilan o'quv (2021-2022) reja asosidagi «Bulajak mutaxassislarda bolalarni maktabga tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish»(tanlov fan)amaliy mashg'ulotlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida talabalar bilan olib borilayotgan malakaviy amaliyotda kuzatamiz. Bunda zamonaviy ta'lim metodlarining hamkorlik texnologiyasi buyicha tuzilgan dasturiy ta'minoti asosida hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohatlar va ushbu sohaga qo'yilgan davlat talablarini amalga oshirish maqsadida sohani rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan magistr'larga amaliy(kuchma) ta'lim berishni kompetensiyaviy yondashuv asosida olib boriladi. Ya'ni ular maktabgacha ta'lim yunalishi bitiruvchi kurs talabalarining MTTlardagi bitiruv oldi malakaviy pedagogik amaliyotlarining taxlilini innovatsion SWOT organayzerlari orqali amalga oshiradilar.

Samarkand shahridagi 80-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida MT yunalishi 302 - guruh talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini Uzbekiston - Finlandiya pedagogika institutining 1-boskich magistrantlari ishtirokidagi metodik taxlil bilan hamkorlikda utkazilayotgan amaliy(kuchma) mashg'uloti mavzusi «MT yo'nalishi magistr-bakalavr va MTT hamkorlik texnologiyasi» – deb nomlanib, uning loyihalashtirilgan ta'limiy taqdimoti ketma-ketligini keltirib o'tamiz:

1. Tashkiliy qism: 8.00 - 9.00 .

a) Amaliyotchi talabalarining MTTda bolajonlarni kutib olish metodikasi(filtrlar, xar bir bolaga individual-variativ asosida yondoshuv, bolaning psixologik xolati,kayfiyatini bilib u xakida ota-onalar bilan suxbatlashish va h.k.)ni metodik tahlil qilish.

b) 9.00 - 9.30. Amaliyotchi talabalarining bolajonlarni ertalabki nonushtaga sog'lom ovqatlanish bo'yicha jalb qila olish jarayonlarini kuzatish.

2. Asosiy qism: 9.30- 11.00.

a) Har bir yoshga doir guruxlarda bo'linib ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni olib boruvchi bo'lajak tarbiyachi sifatidagi amaliyotchi talabalarining faollik markazlaridagi mashg'ulotlarini kuzatishni SWOT taxlili asosida olib borish.

b) Talabalar tomonidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda o'zlari tomonidan ijodiy yondoshuv orqali mohir qo'llari bilan tayyorlanib, taminlangan ko'rsatmali – didaktik vositalar sifati va ishlatilish maxoratiga e'tibor qilish.

v) Kuzatuv jarayonida mashg'ulot mavzularining «Ilk qadam» davlat o'quv hamda «Ilm yo'li» variativ dasturlaridagi oylik va haftalik mavzulariga mos kelishi va uning dolzarb ekanligini yoritilishiga harakat qilinishiga alohida e'tibor berish.



3. Yakuniy qism: 11.00 - 12.00

a) «MT yo‘nalishi magistr-bakalavr va MTT hamkorlik texnologiyasi» asosidagi ilmiy-metodik seminarni tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan o‘tkazish.

b) Bo‘lajak pedagog va murabbiylar tomonidan o‘tkazilgan mashg‘ulot tahlilini guruh tarbiyachilari bilan o‘zaro hamkorlikda shaffof baholashni SWOT ta‘lim texnologiyasi bo‘yicha metodik tahlil ishlarni amalga oshirish.

Namuna: davriy ishlovchi reaktorlarni (Ingliz tilidan tarjima qilingan-Reaktor – raqamli xizmatlar va mahsulotlarni loyihalashtirish va rivojlantirish) qo‘llash usulining «SWOT» tahlilini ushbu jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

S-davriy ishlovchi reaktorlarni qo‘llashning kuchlilik tomonlari

Doimiy harakatlar oson tushuniladi...

W-davriy ishlovchi reaktorlarni qo‘llashning zaiflik tomonlari

Vaqtan yutqaziladi...

O-davriy ishlovchi reaktorlardan foydalanishning imkoniyatlari

Ta‘lim jarayonining tahlilida samarali...

T-to‘siqlar (tashqi)

Ta‘limning barcha amaliy jarayonlarida qo‘llab bo‘lmaydi...

Maktabgacha ta‘lim mashg‘ulotlarida «SWOT tahlili» texnologiyasi amaliyotchi-talabalar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

«SWOT tahlili» ta‘lim texnologiyasi amaliyotchi talabalarni tarbiyachi – murabbiylar tajribasidan foydalanishini ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega.

Bu texnologiya talabalarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshkalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda ta‘lim tizimidagi muammoli o‘qitish metodini, axborot va pedagogik texnologiyalar, interfaol ta‘lim metodlari bilan bog‘lab ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishlari uchun ta‘lim jarayonlarini loyihalashga erishish uchun yuqorida ko‘rsatilgan amaliy tajriba kabi usullar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muhit yaratish metodikasi mavjud. Kompetensiyaviy yondashuvda faollik markazlari orqali ta‘limning maqsadi, mazmuni, metod, shakl va vositalari orasidagi uzviylikni ta‘minlash maqsadida ta‘lim



jarayonlarini loyihalash, zamonaviy ta'limda talabalarning ijodiy, aqliy va kommunikativ faoliyatlarini rivojlantirish mumkinligi tavsifiya etiladi. Jumladan, maktabgacha ta'limda yosh bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini inobatga olgan holda bo'lajak pedagog va murabbiylarga ijodiy, biluv, kommunikativ, ijtimoiy-xissiy, jismoniy, o'yin faoliyatlarini shakllantirishda qo'llaniladigan metodlarni o'rgatishda ta'lim jarayonlarini loyihalash bevosita bo'lajak pedagog va murabbiylarda muammoli ta'limni qo'llashga va aksincha muammoli ta'lim metodi ta'limni loyihalashga olib kelishi tasdiqlanadi. Natijada ta'limning muammoli o'qitish metodikasi bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'limda o'zaro kirishib ketishi – ta'limning innovatsiyalashuviga erishish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'risida»gi Qonuni. Toshkent 2019yil 26 -dekabr.
2. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2018.
3. Fayzullayev Sh. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi (maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun) Uquv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020.
4. Fayzullayev Sh.N. «Islahotlar samarasi: TAJRIBA, MALAKA, TEXNOLOGIYA»// Maktabgacha ta'lim, Toshkent. 2018,12-son,2-5 betlar.
5. Fayzullayev Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha innovatsion faoliyatga yo'naltirish (Uslubiy qo'llanma) Samarqand, Samdu nashri,2020.-100 bet.
6. <http://www.edu.uz>-O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
7. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.



«TARBIYA» FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK-METODIK MAHORAT

I.ATAKOV,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Maqolada 5-6-sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizuallı faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games school, the use of modern information and communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative research and logical thinking. along with the expansion, ideas are articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest.

Key words: technical, informational, audiovisual active civic position, responsibility, obligation, legal consciousness and culture, deep outlook, healthy beliefs, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological, delicate upbringing.

В статье использование педагогических технологий, интерактивных методов и обучающих игр, современных информационно-коммуникационных технологий при преподавании педагогики в 5-6 классах позволяет учащимся мыслить самостоятельно, расширять сферу творческого поиска и логического мышления. излагаются, которые помогают связать изученное на уроках с жизнью и повысить их интерес.

Ключевые слова: интерактивные методы, техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, духовное, идеологическое, углубленное образование.

Tarbiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish quyidagilarni tashkil qiladi: Birinchidan, o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan muhokama qilish va ulardan o‘quv usullarining samarali ishlayotganini o‘rganish orqali foydalanishlari tavsiya etiladi. O‘quvchilarning qanday o‘rganishganlarini bilish va ulardan ma’naviyatli foydalanishga intilish yordam beradi. Ikkinchidan, kompyuter texnologiyalari,



internet va multimedia resurslaridan qoniqarli foydalanish, o'quvchilarni interaktiv ta'lim jarayonida qatnashish va ularni yangi ma'lumotlarga o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Uchinchidan, o'quvchilarning o'z o'zlarini o'rganish va o'qish usullarini boshqarishga imkon beruvchi mudhish-fan metodikasi ishlatish tavsiya etiladi. Bu, o'quvchilarni o'zlashtirish va o'rganishga qo'shimcha ta'sir qiladi. To'rtinchidan, o'quvchilarni amaliyotlar yaratishga va o'quv materialini amaliyotlar orqali o'rganishga rag'batlantirish yordamida ta'limning ko'proq interaktiv va amaliy usulga o'tkazilishi taqdim etiladi. Beshinchidan, o'quvchilar orasida jamoaviy va guruh ishlashni ta'lim jarayonida qo'llash yordamida ularni bir-birlari bilan o'z fikrlarini o'zlashtirish va o'rganishni oshirishga yordam beradi.

Pedagogik adabiyotlarda «tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi.

Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'xis etilgan yangi «Tarbiya» fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak.

«Tarbiya» fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu «Tarbiya» fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

Mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini takomillashtirish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi: fanning asoslarini chuqur bilish; fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash; tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish; inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish; fan vositasida o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish; fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.



Shu jihatdan «Tarbiya» fanini o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish va ularni o‘zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

– davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish; o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish; umumta’lim fanlarini o‘qitishning printsiplari yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

«Tarbiya» fanini o‘qitishda 5-6-sinflarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda ularni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga undaydigan interfaol usullardan samarali foydalanish mazkur fanning sifat va samaradorligini oshiradi.

Tarbiya darsini vijdon, insof, rostgo‘ylik kabi muhim tushunchalarni anglatishdan boshlash kerak. 6-sinf o‘quvchilari uchun rostgo‘ylik haqida bilib olish muhim hayotiy ko‘nikma bo‘ladi. Vijdonan yashash, halol va rostgo‘y bo‘lishi inson uchun nihoyatda muhim.

1-topshiriq. Hikoyani diqqat bilan o‘qing. Oxirini o‘ylab tugatib qo‘ying.

Uzoq kutilgan yoz keldi. Beshinchi sinf o‘quvchilari Karim va Salir birinchi marta yozga lagerga yo‘l olishdi. Bolalar juda xursand ediki, ota-onalarning barcha nasihatlarini eshitishmadi:

– Bolalar, bu tog‘ lageri, – dedi otasi, – juda ehtiyot bo‘ling, tarbiyachining aytganlarini qilinglar, eng asosiysi yaxshi dam olinglar!

Otaning so‘nggi so‘zlari bolalarning xotirasida qoldi, faqat yaxshi dam olish haqidagi so‘zlar qoldi.

Lagerga kelgandan keyin bir necha kun o‘tkach, Karim va Samir otryadi baland toqqa sayohatga chiqdi. Otryad erta tongda uyg‘ondi, bolalar barcha zarur narsalarni yig‘ishdi va tarbiyachi bilan birga yo‘lga tushishdi.

Otryad tushlikka to‘xtaganda, quyosh tikkaga kelgan edi. Tarbiyachi gulxan yoqdi, bolalar pishirish uchun kartoshkani olishdi. Bu orada Karim aylanib kelmoqchi bo‘ldi. U kichik tog‘ daryosiga bordi. Kun juda issiq edi va Karim suzishga qaror qildi. Bola uni kutayotgan xavf haqida payqamadi ham.

Karimning g‘oyib bo‘lganini Samir payqadi. U chaqira boshladi va butun otryad bolani qidirib boshlashdi, lekin hech kim gulxan haqida o‘ylamadi ...

Savollar va topshiriqlar:

1. Matnda bolalarning otasi lagerda o‘zini tutish haqida nasihat qilgan joyini toping. Nima uchun bolalar ota-onalarning nasihatlariga quloq solishmadi?

2. Otryad bolalari va ularning tarbiyachisi qanday xatoga yo‘l quyishdi? Bunday xatolar qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

Yoz – bu hamma, ayniqsa uzoq o‘quv yilidan keyin maktab o‘quvchilari



imkoni boricha ko'proq vaqt tabiat qo'ynida bo'lishga, toza havodan nafas olishga va kuch to'plashga intilishadi. Buning uchun kimdir dala hovliga, kimdir tabiat qo'yniga, tog'ga, kimdir sog'lomlashtirish lagerlariga boradi.

Ammo odam qaerga bormasin, u dam olish vaqtida xavfsizlik va ahloq qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi kerak. Aks holda, tuzatib bo'lmaydigan falokat yuz berishi mumkin.

Topshiriq. Nomlarga rasm tanlang:

Tabiatni iflos qilmang, daraxt shoxlarini sindirmang, o'simliklarni ildizlari bilan uzmang, tanimaydigan mevalarni yemang, yovvoyi hayvonlarga tegmang, gulxanni o'chirishni unutmang.

Keyingi tadqiqotlarda havas, hasad, muvaffaqiyat, mag'lubiyatdan chiqish kabi muhim tushunchalar haqida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Umuman, o'qituvchi tarbiya darsida o'quvchini komil inson sifatida farovon yashashi uchun zarur bo'ladigan eng muhim sifatlarni bosqichma-bosqich o'rgatib borishi tavsiya etiladi. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, «Tarbiya» fani orqali o'quvchini ma'naviy jihatdan yetuk shaxsga aylantirish mumkin. Zero, mazkur fan imkoniyatlari o'quvchida uning uchun umri davomida har daqiqa zarur bo'ladigan axloqiy sifatlarni rivojlantirishga sharoit yaratib berishi lozim. Mazkur maqolada vijdon, rostdog'ylik va insof kabi tushunchalargagina tavsiflandi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. -14-b.

2. M.Quronov, Y.Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov 5-sinf Tarbiya darsligi. T.G.Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. T. 2020 yil. 105 bet.

3. M.Quronov, Y.Risyukova, O.Tigay, O.Usmanova, S.Xafizov 6-sinf Tarbiya darsligi. T.G.Gulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. T. 2020 yil. 108 bet.

4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlar//Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.

5. Sapayev V. Tarbiya fanini o'qitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(8), August, 2023



TALABALARDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.X. TURDIBOYEV,
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Maqolada talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishning nazariy tahlillari keltirilgan bo'lib, mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlarini xorijiy olimlar tomonidan olib borilishi, ular tomonidan yaratilgan metodlar va ularni amaliyotga joriy qilinishi aks ettirilgan. Shu bilan birga maqolada rivojlangan mamlakatlarni ta'lim tizimidagi o'zgarishlari va ular asosida rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishimish uchun mamlakatimizda yaratilgan qonunlar va sharoitlar qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. tabiiy-ilmiy savodxonlik, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, tabiatshunoslik

В статье представлен теоретический анализ формирования естественно-научной грамотности студентов, показаны научные исследования, проводимые зарубежными учеными, созданные ими методы и их внедрение на практике. При этом в статье кратко описаны изменения в системе образования развитых стран и на их основе законы и условия, созданные в нашей стране для попадания в число развитых стран.

Ключевые слова. Естественно-научная грамотность, междисциплинарность, интеграция, естествознание

The article presents a theoretical analysis of the formation of students' natural science literacy, shows scientific research conducted by foreign scientists, the methods they created and their implementation in practice. At the same time, the article briefly describes changes in the education system of developed countries and, on their basis, the laws and conditions created in our country to become one of the developed countries.

Key words. Science literacy, interdisciplinarity, integration, science

Zamonaviy integratsiya, bilish jarayoniga tegishli umumiy qonuniyatlarning yana bir muhim xususiyatini o'zida aks etirib, bilimlarni chuqur va mustahkam qilishni maqsad qiladi. Hozirgi bilimlar integratsiyasi, kimyo fanlariga oid bilimlar bilan chegaralanmay, inson va tabiat orasidagi munosabatlarning murakkablash-ganligini inobatga olib, ularga tegishli hodisalarni tashqaridan turib alohida o'rganish zarurati mavjud. Shu ma'noda tabiiy-ilmiy fanlar turkumiga mansub kimyo fanlarini integrativ tashkil etish asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini e'tirof etmoqda. Kimyo fani o'qituvchilarining fan doirasidagi unga yaqin fanlarning integrativ aloqadorligi asosida tabiiy-ilmiy savodxonlik darajalarini bosqichma-bosqich shakllantirib, uni rivojlantirib borishi zaruriy talab hisoblanishini inobatga olgan holatda, birinchi galda, oliy o'quv yurtlari talabalarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga e'tibor



qaratish zarur. Bunda fanni o'zlashtirishda biologiya, kimyo, fizika, geografiya, ekalogiya, astronomiya, informatika, bioinformatika fanlari bilan integrativ yondashuvni tizimli tashkil etish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Dunyo miqiyosida ta'lim oluvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Masalan, O.S.Golovniyaning ilmiy tadqiqot ishlarida umumta'lim maktabida kimyo ta'limini rivojlantirish va bu natijalarini baholashning zamonaviy vositalari haqida tushunchalar berilgan.

V.I. Alekseev ilmiy tadqiqot ishlari Rossiya kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga bag'ishlangan bo'lib, bunda asosan talabalarni tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish va tayyorlash masalalari o'rganib chiqilgan. Ishlab chiqilgan metodlar asosida kasb-hunar ta'limida ta'sil olayotgan o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligi shakllantirilgan. Zamonaviy gumanitar ta'limda tabiiy-ilmiy tayyorgarlikning roli haqidagi tushunchalar asosida ta'limni insonparvarlashtirish va unga yangicha yondashuvlar taklif etgan [1; 29-30-b].

N.N. Denisenko va V.I. Alekseevlar tomonidan talabalarni kasbiy yo'naltirish tizimini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ular o'rta maktabda tabiiy-ilmiy ta'lim tushunchasi va zamonaviy tabiatshunoslik muammolarini o'quvchilarga tushuntirish borasida bir qator metodlar ishlab chiqishgan va o'rta ta'lim maktablariga joriy etishni tavsiya etishgan [2].

A. D. Suxanovning ilmiy tadqiqot ishlarida tabiiy-ilmiy ta'limning yaxlitligini ta'minlash va ularni o'quvchilarga tushuntirish nisbatan oson bo'lishi borasida bir qancha metodlarni tavsiya etgan [3; 49-58-b].

L.V. Vesninaning ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarni tabiiy-ilmiy dunyoqarashini yoshligidanoq shakllantirish va bu borada o'quvchilarni atrof muhitga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish lozimligi keltirib o'tilgan. U o'z ilmiy tadqiqot ishlarini o'quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda (1-6-sinflar misolida) bir qancha masalan, «Atrofdagi dunyo» va «Tabiatshunoslik» fanlarini integratsiyalashgan kurslaridan foydalanishni tavsiya qilgan va amaliyotga joriy etgan [4].

E.L. Melnik va L.A. Isaevlar tomonidan tabiatni o'rganishda integratsiyalashgan darslardan foydalanishni boshlang'ich maktab o'quvchilaridan boshlash kerakligi va bu keyinchalik o'z samarasini ko'rsatishini o'z ilmiy tadqiqot natijalari asosida isbotlab bergan [5; 74-b].

I. L. Strelkova tabiatshunoslikka oid fanlarini birlashtirish orqali maktab o'quvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirish kerakligi haqidagi tushunchalarini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida va ma'ruzalarida aks ettirgan .



L.V. Dubitskaya o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchini tayyorlashning uslubiy tizimini yaratish orqali o'rta maktab o'quvchilarining tabiiy fanlar ta'limidagi tushunchalarini shakllantirishda integratsiyani amalga oshirish uchun fanlarni o'qitishda integratsiyadan foydalanish zarurat ekanligini isbotlab bergan.

N. S. Mayorova tadqiqotlari bo'lajak fizika, kimyo, biologiya o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida tabiatdagi hodisalarni ilmiy talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan.

S.M. Poxlebayev tomonidan fundamental tabiatshunoslik tushunchalarini o'quvchilarda shakllantirishda fizika, kimyo, biologiya uzluksizligining uslubiy va mazmuniy asoslarini ishlab chiqilgan.

M. T. Rahmatullin ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarida ixtisoslashgan maktabda fundamental fan nazariyalarini o'rganishda fizika, kimyo va biologiyaning fanlararo aloqalaridan foydalanish bo'yicha metodlar yaratgan va amaliyotga joriy etgan. Natijada ixtisoslashgan maktab o'quvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini oshganligini o'z ilmiy tadqiqotining tajriba-sinov ishlarida aks ettirgan.

VR. Ilchenko maktab o'quvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning bir qancha usullarini o'z ilmiy tadqiqot ishlari oqali tavsiya etgan .

Xorijiy olimlar tomonidan o'quvchilarni tabiiy fanlarga oid kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Hozirgi kunda bu olimlarni ilmiy tadqiqot ishlaridan amaliyotda keng foydalanib kelinmoqda. Masalan, VI. Alekseev va Yu. V. Ivanov tomonidan zamonaviy tabiatshunoslik tushunchalarini o'quvchilarda shakllantirish usullari, shaxsiy ish uchun ko'rsatmalar, dasturlar va topshiriqlar tayyorlash qo'nikmalari haqida ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Tayyorlangan topshiriqlar asosida o'quvchilarni tabiiy fanlarga oid tushunchalari shakllantirilgan va bu shakllantirish natijalari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

V.V. Gorbachyov va V.M. Bezdenejnixlami «Zamonaviy tabiatshunoslik tushunchalari» nomli o'quv qo'llanmasi iqtisodiyot ta'lim yo'nalishidagi talabalarga mos bo'lib, unda bir qancha topshiriqlar keltirilgan. Bu topshiriqlar asosida talabalarni tabiiy fanlarga oid tushunchalarini shakllantirish va fanlararo aloqadorlikni o'rganish mumkin .

T. Ya. Dubnishcheva tomonidan yaratilgan «Zamonaviy tabiatshunoslik tushunchalari» nomli o'quv qo'llanmasi o'quvchi va talabalarni tabiiy fanlarga oid tushunchalarini shakllantirishda boshlang'ich ma'lumotlar keltirilgan. Bu o'quv qo'llanma asosida o'quvchilar o'zlari o'zlashtiradigan fanlarni qaysi fanlar bilan aloqadorligini va tabiiy tushunchalarni qaysi fanlarda uchrashini hamda bu tushunchalar orqali aniq va tabiiy fanlararo bog'liqlikni tushinishlari mumkin .



Zamonaviy tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishga oid ma'lumotlarni bir qator olimlar, jumladan, S. I. Samygin [15], V. I. Lavrinenko, V. P. Ratnikov, V. G. Baranov va boshqalar hamda O. P. Lipovkolar ilmiy tadqiqot ishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

A. V. Usova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan o'rta maktabda tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish bo'yicha tushuncha va metodlarni o'rganish mumkin.

Yuqoridagi taxlillarimizdan ma'lum bo'ldiki, tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari aksariyati umumta'lim maktablarida, o'quvchilar bilan hamda maktab kursidagi fanlararo integratsiyaga bag'ishlangan. Shundan kelib chiqqan xolda biz o'z tadqiqotlarimizda bo'lajak kimyo o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdamiz. Zero, bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalar-bo'lajak kimyo o'qituvchilari sifatida ertaga umumta'lim muassasalarida zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan, tabiiy-ilmiy savodxonligi rivojlangan, kimyo fanlarini o'qitishda fanlararo integratsiyani qollay oladigan yetuk mutaxassis sifatida yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradilar. Ta'lim va tarbiyani sifati asosan o'qituvchilarni bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy kompetentsiyalariga bog'liqligi barchamizga yaxshi ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев В.И. Роль естественно-научной подготовки в современном гуманитарном образовании // Гуманизация образования: новые подходы, // Тез. докл. региональной науч.-метод. конф. Владивосток: ДВГАЭУ, 1999. С. 29-30.
2. Денисенко Н.Н., Алексеев В.И. Концепция естественно-научного образования в полной средней школе. Проблемы современного естествознания. Разработка системы профессиональной ориентации учащихся. Владивосток, Изд-во Дальневост. ун-та, 2001.
3. Суханов А.Д. Целостность естественно-научного образования // Высшее образование в России. 1994. - № 4. - С. 49-58.
4. Веснина Л. В. Формирование естественнонаучного миропонимания учащихся посредством интегрированных курсов «Окружающий мир» и «Естествознание» (1-6 класс) 1998 год, кандидат педагогических наук
5. Мельник Э.Л., Исаева Л.А. Интегрированные уроки при изучении природы // Начальная школа. 1998. - № 5. - С. 74.
6. Стрелкова И. Л. Формирование естественнонаучного мировоззрения школьников через интеграцию предметов естественнонаучного цикла. - Ярославль, 1999. -40 с.



TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUV – LOYIHALARHI TASHKIL ETISH

M. T. UMARALIYEVA,

*Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyi.
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Maqolada biologiyani o'qitishda o'quvchilarning o'quv-loyiha ishlarini tashkil etish, o'quv-loyiha ishlari mohiyati o'quv loyiha turlari va bosqichlari, loyihaga asoslangan ta'limning afzalliklari o'yoritilgan. Loyihaga asoslangan ta'limni amalga oshirish biologiya fanidan o'quv samaradorligini oshirish, o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish vositalaridan biri ekanligi ochib berilgan.

В статье рассматривается организация учебно-проектной работы учащихся, содержание, виды и этапы учебно-проектной работы, а также преимущества проектного образования в преподавании биологии. Выявлено, что реализация проектного обучения является одним из средств повышения эффективности обучения биологии, формирования у учащихся ключевых и предметных компетенций.

The article discusses the organization of educational and project work for students, the content, types and stages of educational and project work, as well as the advantages of project-based education in teaching biology. It has been revealed that the implementation of project-based learning is one of the means of increasing the effectiveness of biology teaching and developing key and subject-specific competencies in students.

Loyihaga asoslangan ta'lim amaliy faoliyat bilan bog'liq topshiriqlar orqali bilimlarni egallashdir. Darsliklardagi hayotiy haqiqatdan uzoq topshiriqlar o'miga, o'quvchilar muayyan bilim va ko'nikmalarni talab etadigan loyihalar ustida ishlaydilar.

Loyihaga asoslangan ta'lim asosiy maqsadi o'quvchilarni fikrlashga, to'g'ri va ilmiy savol berishga va savollarga javoblarini izlashga, o'z bilimlari va barcha turdagi ma'lumotlar manbalaridan foydalanishga, boshqa o'quvchilar bilan hamkorlik qilishga va ularning ish natijalarini baholashga o'rgatishdan iborat.

Loyihaga asoslangan ta'limning afzalliklari:

– Real hayot bilan bog'liqlik. Loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchilarda yuzaga keladigan «Bu bilim menga hayotda qanday asqotadi?» degan savoliga bevosita javob beradi. Abstrakt bilimlarni egallash o'miga o'quvchilar aniq va hayotiy masalalarni yechish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

– Kompleks yondashuv. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar tadqiqot olib boradilar, turli manbalardan ma'lumotlar to'playdilar va o'z bilim va ko'nikmalariga tayanadilar.



– Tafakkurni rivojlantirish. Loyiha rejasini ishlab chiqish orqali o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy fikrlash va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyati rivojlanadi.

– Ta’lim oluvchiga yo‘naltirilganlik. Loyihaga asoslangan ta’limning maqsadi o‘qituvchi o‘quvchini nazorat qilishi uchun qulay muammolarni hal etishga emas, balki o‘rganilayotgan mavzuga o‘quvchining qiziqishini orttirishdir, shundagina o‘quvchi mustaqil ravishda mavzuga chuqurroq yondoshadi.

– Motivatsiya. Loyihaga asoslangan ta’lim o‘quvchida o‘z-o‘zini ifoda etish istagini tug‘diradi. O‘quvchilar biror ishni o‘z qo‘li bilan bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ular ishni nihoyasiga yetkazish va boshqalarga nisbatan yaxshi natijalarga erishishga intiladilar.

– O‘z-o‘zini ifodalash. Loyiha ishi o‘quvchini muammoga yechim tanlashda cheklamaydi, asosiy qoyilgan maqsadga erishishdir. Loyiha ijodkorlikka yo‘llaydi va albatta, nafaqat yaxshi va to‘g‘ri bajarilgan ish, balki ishga o‘ziga xos, individual yondashuv ham e’tiborga loyiqdir. Bu o‘quvchilarni o‘z tasavvurlarini ishga solishga va innovatsion echimlarni izlashga undaydi.

– Fanlararo integratsiya. Loyiha ustida ishlash turli fanlarga oid bilimlardan foydalanishni nazarda tutadi.

– Samaradorlik. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarga nafaqat zarur hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, balki o‘ziga xos kichik kashfiyotlar qilish imkoniyatini beradi.

– Kommunikativlik. Loyiha ustida boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash jamoada faoliyat yuritish ko‘nikmasini rivojlantiradi, o‘quvchilar vazifalarni o‘zaro taqsimlash, etakchi va ijrochi rolini bajarish va bir-birining fikrini tinglashga o‘rganadilar.

Tabiiy fanlarda o‘quvchilarning amaliy faoliyati:

1. Uzoq muddatli o‘quv-loyiha ishlari (tadqiqotchilik loyihalari).
2. Bir soatga mo‘ljallangan loyihalar (amaliy mashg‘ulotlar)
3. Ekspres loyihalar (kichik amaliy ishlar)

Loyiha ishing asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir.

Loyiha ishing asosiy tezisi: «O‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qaerda va qay tarzda foydalanishni bilaman» sanaladi.

Bu tezis o‘quvchilarning fan asoslarini ongli o‘zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo‘ljalni to‘g‘ri olishlariga yordam beradi.

O‘quv-loyiha ishi bosqichlari:

Loyiha toifasi, mavzusi va qatnashilar sonini aniqlash;

Loyiha muammosi, predmeti, vazifalarini aniqlash



Loyiha qatnashchilari uchun topshiriqlar tuzish va uni a'zolar o'rtasida taqsimlash;

Loyiha yuzasidan o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini tashkil etish;

Loyihadan kutilgan natijalarni aniqlash;

Loyiha ishini yakunlash, baholash va xulosalar yasash.

Loyiha turlari	
Loyihada ko'zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko'ra	Tadqiqot xarakteridagi loyihalar.
	Ijodiy xarakterdagi loyihalar.
	Rolli loyihalar.
	Amaliy xarakterdagi loyihalar
Loyihalarning predmeti va mazmuniga ko'ra:	Fanlararo izlanishni talab etadigan loyihalar
	Bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar
Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko'ra:	Yakka tartibdagi loyihalar
	O'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan loyihalar
	Sinf yoki maktab miqyosida olib borishga mo'ljallangan loyihalar
Muddatiga ko'ra:	Qisqa muddatli
	Uzoq muddatli

Tadqiqot xarakteridagi loyihalar. Ushbu loyihalarning tuzilmasi puxta ishlangan, jumladan, tadqiqot obyekti, predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, foydalaniladigan metodlar, tajribalar o'tkazish, natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo'lishi kerak.

Mazkur loyiha mantiqan ilmiy-tadqiqotlarga yaqinlashgan va uning yechimiga mos bo'lishi kerak. Loyihaning ushbu turida tadqiqot muammosi, maqsadi, obyekti, predmeti, farazi, vazifalari, metodlari aniq belgilanishi lozim.

Tadqiqotchilik loyihalarini o'quvchining tadqiqotchilik faoliyatining eng yuqori bosqichi deb hisoblash mumkin. O'quvchilarda tadqiqotchilikka qiziqishning namoyon bo'lishi, tadqiqot o'tkazishning bir qancha bosqichlarini o'tishi kelgusida ularning ilmiy jamiyat sari qo'ygan birinchi qadami bo'ladi.

O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishdan kutiladigan natijalar: o'quvchilar o'quv dasturida belgilan doiradan chiquvchi bilimlarga ega bo'ladilar; ilmiy-tadqiqot usullari va metodlarini egallaydilar; zarur bilimlarni topish uchun mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kerakli ma'lumotlarni tanlash, saralash ko'nikmasini egallaydilar; tushuncha va hodisalarni mustaqil taqqoslashga o'rganadilar; o'zining shaxsiy fikrini bildirish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini aniq va dadil ifoda etish malakasiga ega bo'ladilar.

Ijodiy loyihalar. Mazkur loyihani hal etishda qatnashchilardan ijodiy yondashish talab etiladi. Ijodiy loyihalarning tadqiqot xarakteridagi loyihalardan asosiy farqi, ularning mantiqiy strukturasi avvaldan belgilanmaydi, balki loyihaning yechimi davomida shakllantiriladi. Ijodiy loyihada qatnashchilarning qiziqishi, motivi, ehtiyojiga



ko'ra loyihaning yo'nalishi, olinajak natija belgilanadi. Lekin loyihada ko'zda tutilgan natijani rasmiylashtirish va jihozlashda qat'iy talab qo'yiladi.

Rolli o'yin loyihalari. Ushbu loyihalarda struktura aniqlanmaydi va ish tugagunga qadar ochiq bo'ladi. Loyiha qatnashchilari muayyan rollarni bajaradilar. Rollarga muvofiq holda ularning vazifalari aniqlanadi. O'yin syujetiga muvofiq ular rollarni bajarishi, tegishli hollarda muloqotga kirishishi, bunda mavjud qobiliyat va iste'dodlari, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishlari lozim. Bu yerda ijodiy izlanish mavjud, lekin o'quvchilar ma'lum rollarni bajarish orqali loyiha hal etilganligi sababli rolli o'yin loyihalar sanaladi.

Amaliy xarakterdagi loyihalar. Bu toifadagi loyihalar qatnashchilar faoliyatidan kutilgan natijalarning aniq belgilanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur natija amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Bunday loyihalar juda yaxshi strukturaga ega bo'lishi kerak. Loyiha ssenariysi, qatnashchilarning vazifalari, natijaga erishish bosqichlari, foydalaniladigan metodlar, olingan natijalarni rasmiylashtirish shakllari aniq belgilanishi kerak. Bu loyihani amalga oshirishda qatnashchilarning har birining ulushi, yakka tartibda va kichik guruhda olib boriladigan ishlar natijalari, taqdimot, olingan natijalarni amaliyotga qo'llash yo'llari ko'rsatiladi.

O'quv-loyiha ishlarini bajarish davomida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi.

- muammoni anglash
- muammoni hal etish yo'llarini izlash
- avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish
- natijalarni bashorat qilish
- turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J. O., G'ofurov A. T. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik// O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: TDPU, 2012, 240b.

2. Tolipova J.O., Umaraliev M.T. «Botanika darslari (6 - sinf)» O'qituvchi kitobi. (Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri). Toshkent: «Tafakkur» nashryoti, 2016 yil.

3. Umaraliev M.T. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi. - T., 2021. - 113-120 b.

4. Umaraliev M.T. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi. - T., 2021. - 113-120 b.

5. Umaraliyeva M.T., Abduraxmanova I.Yu. Ilm sari ilk gadam / o'quv qo'llanma / -Toshkent: Tafakkur, 2020. - 48 b. ISBN 978-9943-24-294-4



UZLUKSIZ TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITISHNING DIDAKTIK VOSITALARI MAJMUIDAN FOYDALANISH

F.B. IBRAGIMOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti
dotsent v.v. b.

Maqolada ta'lim sifatini oshirish uchun didaktik vositalar majmuasidan foydalanish muammolari yoritilgan, samarali o'qitish tamoyillari, xususan, individuallashtirish, integratsiya, tabaqalash, shuningdek, ta'limni loyihalash va kompleks ishlatishning didaktik tizimi keltirilgan. asboblari.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, didaktik vositalar, o'qitish texnologiyalari, dizayn, ta'lim jarayonini dasturiy ta'minot va uslubiy ta'minlash.

В статье освещены проблемы использования комплекса дидактических средств в целях повышения качества обучения, обозначены принципы эффективного обучения, в частности, индивидуализация, интеграция, дифференциация, представлена дидактическая система проектирования и комплексного применения учебных средств.

Ключевые слова: качество обучения, дидактические средства, технологии обучения, проектирование, программно-методическое обеспечение учебного процесса.

The article highlights the problems of using a set of didactic tools to improve the quality of education, outlines the principles of effective education, in particular, individualization, integration, differentiation, and presents a didactic system for designing and comprehensively using educational tools.

Key words: quality of education, didactic tools, teaching technologies, design, software and methodological support for the educational process.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining, eng yangi uskunalari va ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi, o'xshash xorijiy texnologiyalardan foydalanish, shubhasiz yosh mutaxassislar faoliyati kasbiy sohasining tuzilmasi va xususiyati o'zgarishiga hamda murakkablashib, hajmda kattalashib borayotgan ularning kasbiy tayyorgarligi mazmuniga ham ta'sir o'tkazadi, bu esa, o'z navbatida, integratsiyalash va differentsiyalashni taqozo etadi.

Ko'p bosqichli uzluksiz integrativ-modulli tizimi, uslubiyat tizimi fanlararo yondashuv bo'lgan ilmiy asosda barpo etiladi va rivojlantiriladi. Fanlararo yondashuv ta'limning yetakchi qonuniyati sifatida: kasbiy tayyorlikning insoniylashuvi, integratsiyalashuvi, differentsiyalashuvi, individuallasuvi, axborotlashuvi va kompyuterlashuvi, jadallashuvi va standartlashuvi singari eng muhim tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi. Kasb-hunar kollejaridagi



ta'lim jarayoni o'quvchilarning yoshi va shaxsiy o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tashkil etiladi hamda ta'lim olayotganlarning kasbiy o'z-o'zini aniqlashdagi imkoniyatlarini kengaytirishga, har bir shaxsning individual ehtiyojlari va imkoniyatli xilma xilligini hisobga olgan holdagi bitiruvchilarning malakasini, maxsus va umum madaniy tayyorgarligini yuksaltirishga mo'ljallanadi.

Ta'lim muassasalarini rivojlantirishning ushbu tamoyillari va o'ziga xosliklari kasblar bo'yicha integratsiyalangan guruhlardagi ko'p bosqichli uzluksiz kasbiy ta'limning butun tizimiga singib ketadi hamda tizimning asosiy bo'g'inlari: o'qitishning maqsadi, mazmuni, muhandis-pedagogik kadrlar, pedagogik o'quv-tarbiyaviy va o'quv-ishlab chiqarish jarayoni, uning o'quv-moddiy bazasi, didaktik va ilmiy-uslubiy ta'minoti va hokazolarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi; ilg'or innovatsiyalarga mos tushuvchi o'qitishning samarali usullari, shakllari, vositalari va texnologiyalarini joriy etish zaruriyatini belgilaydi.

Ko'p bosqichli uzluksiz kasbiy ta'lim mazmuni va jarayonida yuzaga kelgan nazariyalar hamda o'zgarishlar vujudga kelgan muammolar va pedagogik tendariya hamda amaliyot taraqqiyotining yangi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda.

Ana shunday tadqiq qilinadigan pedagogik muammolar jumlasidan o'quv-moddiy bazani yaratish va mustahkamlashni ilmiy asoslash, didaktik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish hamda qo'llash, shu jumladan, kasb-hunar kollejlari kasblar bo'yicha integratsiyalangan guruhlar bo'yicha ko'p bosqichli, uzluksiz kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi o'qitishning axborot texnologiyalarini qo'llash muammosidir.

Muammoning dolzarbligi quyidagi qator omillarni o'zichiga oladi:

– ko'p bosqich uzluksiz kasbiy ta'lim mazmunini rivojlantirish va o'qitishning texnik hamda qator dasturiy majmualarini loyihalash strategiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalaridan yetarlicha foydalanmaslik;

– ko'plab alohida va integrallashgan kasblarning darsliklar, o'qitishning o'quv-ko'rgazmali hamda texnik vositalari, ulardan foydalanish bo'yicha uslubiyatlar bilan ta'minlanmagani;

– yangi darsliklar, zamonaviy didaktik vositalar hamda xususiy uslubiyatlar yaratish bo'yicha ishlarning qoniqarsiz yo'lga qo'yilganligi va borishi;

– o'qitish vositalarini ishlab chiqish hamda yaratishning istiqbolli markazlashgan tizimi, ularni loyihalash va qo'llashda tizimlilik hamda majmuaviylikning mavjud emasligi;

– o'qitish jarayonini induviduallashtirish, integratsiyalash, tabaqalash hamda jadallashtirish, pedagogik jarayonlar va tizimlarni samarali boshqarish maqsadidagi yangi axborot texnologiyalari vositalarini yaratish va joriy etish to'xtab qolayotganidan kelib chiqmoqda.



Shu bois kasblarning integratsiyalashgan guruhi bo'yicha ko'p bosqichli uzluksiz kasbiy ta'limni rivojlantirish sharoitlarida quyidagilarni hisobga olish zarur:

– ko'p bosqichli uzluksiz kasbiy ta'lim maqsadlari, ehtiyojlari, mazmuni jarayoniga mos o'qitish vositalarini kasbiy tayyorlash jarayonini ilmiy ta'minotni yaratishga bo'lgan jiddiy hamda uni didaktik loyihalash bo'yicha nazariy asoslar, texnologiyalar va vositalar, tavsiyalarning mavjud emasligi;

– ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini zamonaviy o'quv-ishlab chiqarish uskunalari, elektron-xisoblash texnikasi, o'qitishning o'quv-ko'rgazmali hamda texnik vositalari, o'quv uslubiy adabiyotlar va hokazolarga bo'lgan amaldagi ehtiyoji va kasbiy ta'limni tashkil etish, o'tkazish hamda sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ularning yetishmasligi;

– ta'lim mazmunini loyihalashga integrativ-modulli yondashuv asosida kasblarning birlashgan guruhlari bo'yicha ko'p bosqichli uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish hamda o'tkazish, o'quv axborotining integratsiyalashmagan holda ifodalovchi tor funksiyali an'anaviy ma'lum o'qitish vositalarining mavjudligi;

– o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan xolda mustaqil o'quv bilim olish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini xususiyashtirish hamda tabaqalash va faollashtirish asosidagi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni amalga oshirish strategiyasi, bunday didaktik yo'nalish va ko'p funksiyali didaktik imkoniyatlarga ega vositalarning mavjud emasligi;

– kasbiy tayyorgarlikni texnologiyalashtirish hamda jadallashtirish zarurati va ularni amalga oshirishning zamonaviy tizimlari va vositalari majmuining yetarli emasligi, bir vaqtning o'zida individuallashtirilgan – shaxsiy ta'lim jarayonini boshqarish, o'qitish, isloh qilish jarayoni va natijasini nazorat qilish funksiyalarini bajaruvchi ko'p tarmoqli moslashtirilgan dasturiy uslubiy ta'minotli o'qitish, axborot texnologiyalari, zamonaviy kompyuter vositalarining mavjud emasligi;

– mualliflik o'quv dasturlari asosida pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazishning qo'lga kiritilgan imkoniyatlari va o'qitishning mualliflik uslubiyatlari va texnologiyalarini qo'llab quvvatlash hamda amalga oshirish uchun didaktik vositalarning ko'p turli yoki muqobil tanlov imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasida mazkur obyekktiv ziddiyatlarning mavjudligi.

O'qitishning didaktik vositalari fanlar ta'lim yo'nalishlari mutaxassisliklari va ixtisosliklarini majmualari uslubiy ta'minlashning umumiy tarkibiga kiruvchi moddiy-texnik ta'minotning asosiy bo'g'inidir.

Ta'lim ixtisosliklari va kasblarini tayyorlash (o'qitish) yo'nalishlari bo'yicha majmualari uslubiy ta'minlash borasidagi o'quv muassasa ishlarini tashkil etish eng muhim ilmiy-uslubiy funksiyalardan biri bo'lib, u barcha o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi murabbiylariga jarayonli vazifalarni amalga oshirishda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi



O'qitish vositalarini didaktik loyihalash deganda texnik loyihalashdan farqli o'laroq, maqbul o'qitish vositalarini ilmiy asoslangan bashoratlash, rejalashtirish va tanlash jarayonlari hamda natijalari, ularning majmualari tarkibini amaldagi va tasdiqlangan o'quv-dasturiy hujjatlarga muvofiq kasbiy tayyorgarlik bilan ta'minlash maqsadida butlash tushuniladi.

Didaktik loyihalashning asosi o'quv fanlarini o'qitish jarayonidagi o'quv vositalari roli va o'rini aniqlash hamda ushbu vositalarning ko'plab turli-tumanliklari orasidan eng samaralilarini tanlash, o'qitishning belgilangan vazifalarini hal qilish uchun ularning oqilona majmuini tuzishdir. O'qitishning belgilangan vazifalari asosida o'qitish vositalarining turli ko'rinishlari yordamida ularni amalga oshirishning kelgusidagi zarurati, imkoniyati va maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalalar hal qilinadi.

Bilishning birinchi pog'onasi-jonli mushohada, tevarak-atrofdagi narsalar va xodisalarni idrok etishdir. O'qitishning didaktik vositalari majmuidan foydalanish o'qitishning yetakchi prinsiplaridan biri ko'rsatmalilik prinsipining asosini tashkil etadi. Ko'rgazmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib, darsda ularni kompleks xolda qo'llash talab qilinadi. Ana shundagina darsning har bir bilish vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishish mumkin.

Ko'rgazmali vositalarda ko'rsatmalilikning qo'yidagi har xil turlaridan foydalaniladi.

1. Tabiiy ko'rgazmali vositalar.
2. Hajmli ko'rgazmali vositalar.
3. Ovozli ko'rgazmali vositalar.
4. Ramziy va grafik ko'rgazmali vositalar.

Shuningdek, ko'rsatmali vositalar, ayniqsa, o'quvchilar o'rganiladigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rsatmali vositalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. -Т.: Ўзбекистон, 1999. - 30 б.
2. Лобанов, А.А. Основы профессионально-педагогического общения. -М.: Академия, 2002. - 192 с.
3. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. - М.: Педагогика, 1991. - 168 с.



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARNI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDOSHVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (biologiya va genetika fani misolida)

N.A. YAKUBJONOVA,

*Toshkent davlat agrar universiteti
Ekologiya va botanika kafedrasida assistenti*

Ushbu maqolada Biologik ta'lim jarayonida integratsiya, fanlararo bog'liqlik masalasiga turli olimlarning qarashlarini keltirib o'tilgan.

Kalit so'zalar: kasbiy kompetensiya, integrativ yondashuv, o'qitishdagi izchillik, intellektual qobiliyat, kommunikativlik.

В данной статье представлены взгляды различных ученых на проблему интеграции и междисциплинарности в процессе биологического образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, интегративный подход, последовательность в обучении, интеллектуальные способности, коммуникабельность.

In this article, the views of various scientists on the issue of integration and interdisciplinarity in the process of biological education are presented.

Key words: professional competence, integrative approach, consistency in teaching, intellectual ability, communication.

Biologiya va genetika fanlar doirasida shakllantirishning namunaviy modeli respublika aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ma'lum bir tartibda va ilmiy asosda olib borishni imkon yaratadi, uning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga biologiya va genetika fanlari doirasida amalga oshirilayotgan sog'lom turmush tarzini namunaviy modeli – odamlar o'rtasida sog'lom munosabatlarni hamda namunaviy hulkni shakllantirish jarayonini tartibga solib boradi va tezlashtiradi. Odamlar jamiyatda o'zlarining mavjud yashash tarzlarini, gigiyenik xulqlarini, shuningdek tibbiy madaniyligi va faolliklarini namunaviy etap bilan qiyoslab ko'rish va unga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biologiya fanining rivojlanishi jarayonida mavjudotlar shakllarining tuzilishi, faoliyati, taraqqiyoti, evolyusiyasi va ulamint atrof-muhit bilan munosabatini chuqur o'rganuvchi tarmoqlar vujudga keldi. Tirik tabiatdagi barcha jarayonlarni ilmiy nazariyalarga asoslangan holda organizm qismlari va organizmdagi yaxlit uyg'unlashgan faoliyat sir-asrorlarini va umuman tiriklikning kelib chiqishi, evolyusiyasini, unga xos belgi va xususiyatlarini chuqur talqin etish, biologiyaning muhim vazifalaridan biri



hisoblanadi. Tiriklikning tub mohiyatlaridan biri xar bir organizmga xos bo'lgan irsiy xususiyatlarning uning avlodlariga o'tishi bilan shu organizmlarga xos xususiyatlarning saqlanishdan iboratdir. Bu tiriklik mavjudot tarkibiy qismining o'z-o'zidan hosil bo'lishini ta'minlovchi jarayonlar tufayli nuklein kislotalar faoliyatlari asosida ro'y beradi. Tirik mavjudotlarga o'zgacha belgilarning paydo bo'lishi, ya'ni o'zgaruvchanlik xosdir. Bu jarayon ham irsiyat moddasi – nuklein kislotalardagi o'zgarish natijasida sodir bo'ladi. Yuqorida bayon etilgai tiriklikning barcha belgi va xususiyatlari qatorida sharoitga moslashish, o'z-o'zini brshkarish, hosil qilish hamda ichki muhit sharoitining barcha ko'rsatkichlarni turg'un holatda saqlash ya'ni organyazm gomeostazini belgilab berish kabi murakkab jarayoilar majmui xar bir tirik mavjudot uchun xos bo'lgan belgilarning zamonaviy tushunchasi hisoblanadi.


Yer sharidagi turli-tuman o'simlik va hayvonot dunyosi shundaygina tarqalib qolmay, balki uning tarqalishini o'zaro uzviy boglanish hosil qilgan yagona organnk moddalarni parchalovchilar hamda muhitning qisman tirik bo'lmagan tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Tarkibiy qismlar orasidagi munosabat va shu jarayonda insonning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Munosabatlararo jarayondan inson o'ziga naf chiqarish bilan mavjudotlar va atrof muhit o'rtasidagi mutanosiblik aloqasining buzilmasligi ekologiyaning dolzarb masalasi tarzida o'rganiladi.

Hozirga zamon biologiyasi bir tomondan hayot faolIntining fizik kimyoviy asoslari va sistemali mexanizmlarni anglatuvchi bilimlarning tez rivojlanayotganligi bilan ifodalansa, ikkinchi tomondan biologiyaning sotsial mohiyagi ortishi, ya'ni biologiyaning jamiyat hayoti hamda uning o'rganish ob'ekti hisoblanishi bilan uzviy bog'liqligi ortib boradi.

Biologiya fanining rivoji bilan uning turli tarmoqlari o'zining taraqqiyot yo'nalishi bo'lgan alohida fan sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham hozirgi biologiya tiriklik haqidagi murakkab fanlar majmuidan iboratdir.

Biologiyaning ba'zi sohaları boshqa tabiiy fanlar hamkorligida paydo bo'lgan. Biologik sistemalarda ro'y beradigan fizik jarayonlarni biofizika, organizmlarning kimyoviy tarkibi, ulardagi kimyoviy jarayonlarni biokimyó, tirik organizmlarning yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini biogeografiya fani o'rganadi. Bionika organizmlar hayot faoliyatining o'ziga xos jihatlari va tuzilishini asos qilib texnik sistemalar yaratishni, biotexnologiya esa tirik organizmlardagi biologik jarayonlarni ishlab chiqarish korxonalarida qo'llashni maqsad qilib qo'yadi[63].

Biologiyani yosh tarmoqlaridan biri bu genetika hisoblanadi. Yosh bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda genetika fani juda jadal suratlar asosida rivojlanib bormoqda va quyidagi tarmoqlarga bo'linib o'rganiladi (1.1.2-rasm).



1.1.1-rasm. Genetika tarmoqlari.

Biologiyada tirik organizmlarning hayotiy xossalarini o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Kuzatish metodi. Eng dastlabki usullardan bo'lib, biologiya fanining ilk rivojlanish davrida keng qo'llanilgan. uning yordamida har qanday biologik hodisani tasvirlash, ta'riflash mumkin. Kuzatish usuli bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu usuldan tirik organizmlarni miqdor va sifat ko'rsatkichlarini ta'riflashda foydalaniladi.

Taqqoslash metodi. Tirik organizmlarning turli sistematik guruhlar, organizmlar, biogeotsenozlarning tarkibiy qismlaridagi o'xshashlik va farqini aniqlash yo'li orqali ularning mohiyatini ochishga asoslangan. Bu usulda olingan ma'lumotlar bilan hujayra nazariyasi, biogenetik va irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlari qonuni kashf etilgan.

Tarixiy metodining biologiyada qo'llanishi Ch.Darvinning nomi bilan bog'liq. Bu usul biologiyada chuqur sifatli o'zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillarni o'rganadi. Tarixiy usul hayotiy hodisalarni o'rganishning asosiga aylangan. Mazkur usul yordamida organik dunyoning evolutsion ta'limoti yaratilgan.

Ekspirimental yoki tajriba metodi. Biologiyada o'rta asrlarda (Abu Ali ibn Sino) boshlangan bo'lsa, fizika va kimyo fanlarining ravnaqi tufayli keng qo'llanila boshlandi. Bu usul bilan organizmlardagi voqea-hodisalar boshqa usullarga nisbatan chuqur o'rganiladi. Bugungi kunda yuqorida berilgan usullar biologiyaning tegishli sohalarida foydalanib kelinmoqda va ular bir-birini to'ldiradi. Genetika fanini o'rganish metodlari ham mavjud. Boshqa tabiiy fanlar singari genetika ham o'z tadqiqot metodlariga ega. Bularga quyidagi metodlar kiradi:

1. Duragaylash metodi orqali ayrim belgi-xossali ota-ona organizmlarni chatishtirish natijasida olingan duragaylarning bir qancha avlodlarida rivojlanishi o'rganiladi. Olingan



natijalarning muqarrarliligi matematik statistika metodi orqali aniqlanadi.

2. Sitogenetik metod yordamida xromosomalar o'zgarishi bilan aloqador bo'lgan organizmning irsiyati va o'zgaruvchanligi o'rganiladi. Binobarin sitogenetika irsiyat va o'zgaruvchanlikning sitologik asoslarini tadqiq etadi.

3. Egizaklar metodi bilan organizmdagi belgi xossalarning rivojlanishida genlar va tashqi muhit omillarining qay darajada ko'rsatgan ta'siri o'rganiladi.

4. Molekulyar genetik metod bilan irsiyat va o'zgaruvchanlikning moddiy asoslari bo'lgan nuklein kislotalarning, xususan, dezoksiribonuklein – DNK va ribonuklein – RNK kislotalarning tuzilishi va funksiyasi aniqlanadi.

5. Populyatsion statistik metod populyatsiyalardagi irsiyatni o'rganishda qo'llaniladi. U populyatsiyalardagi dominant va retsessiv allellarni takrorlanish darajasini populyatsiyalardagi tabaqalanish va qarindoshlik darajasini aniqlash bilan shug'ullanadi.

6. Filogenetik metod genlar allellari chastotalari uchrashiga asosan organizmlar yoki ularning populyatsiyalari o'rtasidagi genetik qarindoshlik darajasini, ularning kelib chiqish shajarasini o'rganadi.

7. Genetik injeneriya metodi bir organizmning noyob genlari xromosomalarini boshqa organizmga ko'chirib o'tkazishga asoslangan[64].

Tabiat bilan jamiyatning munosabatlarini muayyan vaziyatlarda inson va tabiat munosabatlari va qarama-qarshiliklarini tushunish va umumiy asoslarni aniqlash uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan asos sifatida taklif qaraladi. U kimga va nimaga aloqadorligini belgilaydi va bu munosabatlar qanday tuzilgani haqida bizga xabar berishi mumkin. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri qadriyatlarini keltirib chiqarmaydi, lekin u bizga qiymat atributlari qayerdan kelganligi haqida xabar berishi mumkin. Yuqoridagi talablarga nisbatan qanday baholanishini batafsil tavsiflaydi [17; 77-p.].

Psixologik, tajribaviy va kontekstual inson va tabiat aloqasi. Inson-tabiat aloqasi (ITA) – bu inson va tabiat munosabatlariga oid bilimlarni ko'p tarmoqli ko'rib chiqish natijasida paydo bo'lgan tushunchadir. Ushbu konsepsiya ko'pincha bir-biridan ajratilgan holda o'rganiladigan inson va tabiat munosabatlarining uchta to'ldiruvchi o'lchovini birlashtiradi. Birinchi o'lchov (psixologik ITA) inson va tabiat munosabatlarini ongning atributi sifatida ko'rib chiqadigan tadqiqotlardan kelib chiqadi. Ushbu adabiyotlar majmuasi tabiatning mavhum shakli bilan psixologik bog'liqlikni o'rganadi. Odamlarning tabiat bilan aloqasidagi o'zgarishlar ko'pincha psixologik dinamikani tasvirlash yoki atrof-muhitga xos bo'lgan xatti-harakatlarni bashorat qilish uchun miqdoriy usullar yordamida o'lchanadi.

Putra va boshqalar Indoneziya oliy ta'lim massasalarida biologiya fanini o'qitishda yuqori texnologiyali aloqa amaliyotlarini integratsiyasi bo'yicha ish olib boradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'limga integratsiyasi universitetlarda o'qitishda ham o'qituvchilar, ham talabalar uchun foydali bo'lgan yuqori texnologiyali



amaliyotlarni joriy qildi. Ushbu tadqiqot tibbiyot, genetika, zoologiya va boshqalar kabi ilg'or sohalarni o'rganishda biologiyaning ilmiy o'rganishda markaziy o'rinni egallashi zarurligini ta'kidladi. Ushbu tadqiqot akademiklar va siyosatchilarning e'tiborini Indoneziya oliy o'quv yurtlarida biologiyani o'qitishda bunday ilg'or aloqa amaliyotlarini integratsiyalashga qaratadi va Indoneziyadagi ta'lim amaliyotining tahlili samaradorlikni namunasi sifatida qaratadi (1.1.4.-1.1.5.-rasmlar) [94; 746-758-b.].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijasida tibbiyot, genetika, zoologiya va boshqalar kabi ilg'or sohalarni o'rganishda ta'lim va kommunikatsiya markaziy o'rin egallaydi va bu o'zaro integratsiyalashuv jarayoniga samarali ta'sir qiladi.

H. Ross talabalarning tushunishini o'lchash va baholashni kognitiv modellar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Kognitiv modellar, kuzatishlar va kuzatishlarni sharhlash jihatdan ochib beriladi. Tirik tizimlar haqidagi fikrlash modellari – bilish burchagi – shuning uchun baholashni ishlab chiqish, qo'llash juda muhimdir

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biologiya kontseptsiyasini inventarizatsiya qilish tadqiqoti kontseptual asoslarning (ham kognitiv, ham intizomiy) markaziy rolini talabalarning tirik tizimlar haqida fikr yuritishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped. fan. dok. diss. avtoref. -T., 2006, - 245 b.;
2. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalarining «Kasb ta'limi» yo'nalishlari misolida): Dis. ... ped. fan. dok. - T.: 2018. - 230 b.
3. Qurbonov M. Uzlüksiz ta'limda fizik eksperimentlarning didaktik funksiyalari samaradorligini oshirish (Oliy ta'lim misolida). P.f.d., dis. - Toshkent, 2012. - 255 b.
4. Sharov A. S. Kultura i obrazovanie: opit refleksivnogo analiza /D. A. Sharov // Aktualnie psixo logopedagogicheskie problemi v nauke i praktike: materialy VI Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. - Omsk.
5. Karakhonova Lobarkhon Musakhonovna. Peculiarities of using modern educational tools to increase the effectiveness of teaching the natural sciences and direct students to independent activities. Asian Journal of Multidimensional Research. Vol. 11, Issue 5, May 2022. - Pp.182-191. A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2278-4853.2022.00106.9
6. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. Avtoreferat. - T., 2016. - 148 b.



TRIGONOMETRIYANI GENETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING METODIK TIZIMI XUSUSIYTLARI

U.X.XONQULOV,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti (PhD);

X.A.ABDULLAYEVA,

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Основой целого ряда естественнонаучных дисциплин, использующих методы математического моделирования, стала натуральная философия. Её истоки уходят в античные времена, но лишь в XVII веке натуральная философия начала органично сочетать гуманитарный и математический подходы к анализу природных явлений. В трудах Г. Галилея и И. Ньютона впервые была принята математическая формализация вербального описания кинематических и динамических процессов. Это значительно повысило строгость выводов, но также сделало рассуждения менее доступными для людей, не сведущих в математике. Подобная проблема возникает и при математическом описании образовательного процесса. Однако, при разработке теоретических основ образовательной квалиметрии необходимо учитывать, что заинтересованные в этой области должны обладать элементарными математическими навыками.

Сложности также возникают из-за того, что формализация философских методов приводит к наделению математических моделей признаками элементов реальности. Это особенно опасно при интерпретации результатов исследований латентных характеристик учащихся. Условные величины, используемые для формализации рассматриваемого процесса, могут быть ошибочно приняты за реальные свойства личности. Аналогичная ситуация наблюдается в современной натуральной философии при обсуждении свойств микрообъектов, недоступных для непосредственного измерения.

Первопроходцем в области тестовой диагностики можно считать английского ученого Френсиса Гальтона [1], который в 1884-1885 годах провел серию испытаний среди детей и взрослых в возрасте от 5 до 80 лет. В этих тестах измерялись быстрота реакции, вес, емкость легких, сила кисти, сила удара кулаком, рост и острота зрения. Также оценивались способности испытуемых запоминать буквы и различать цвета. Вместо интуитивной оценки свойств личности, Ф. Гальтон применил статистическую обработку результатов эксперимента.

Первая попытка измерить интеллектуальные способности детей была предпринята в начале XX века французским психологом Альфредом Бине [2]. Он использовал метод определения трудности заданий для групп детей разного возраста и оценивал критериальную валидность результатов тестирования, сравнивая их с мнением преподавателей. А. Бине также разработал инструкции по проведению тестирования.



Достижения в области психологического тестирования стали основой для развития педагогической диагностики на солидной математической базе. Этими исследованиями занимались такие ученые, как К. Пирсон [3], Г.Ф. Кьюдер и М.В. Ричардсон [4], П.Ж. Рюлон [5], Р.Л. Ибел [6], Р. Гласер, Г. Раш и другие [7]. Внедрение централизованного тестирования и единого государственного экзамена в нашей стране дало импульс для дальнейшего развития теории моделирования и параметризации педагогических тестов.

Сегодня в большинстве учебных заведений используются тесты входного, текущего, рубежного и итогового контроля. Также тестовые задания широко применяются в процессе самоконтроля. Огромный потенциал самодиагностики раскрывается в различных способах индивидуализированного адаптивного тестирования. Таким образом, на современном этапе развития педагогической диагностики и дидактической тестологии созданы все необходимые предпосылки для активного развития образовательной квалиметрии.

Решение задачи создания теоретических основ этой специфической области педагогической науки позволяет методология современной натуральной философии, которая характеризуется произвольностью аксиоматики, возможностью создания математических моделей рассматриваемых процессов и использованием статистических методов обработки эмпирических данных.

Методология современной натуральной философии позволяет на основе небольшого количества постулатов развивать логически обоснованные рассуждения, которые применяются при исследовании сложного многофакторного нелинейного процесса, такого как процесс обучения. Учитывая запутанность причинно-следственных связей между субъектами образовательного процесса, исследователь должен иметь возможность рассмотреть тот же процесс с разных позиций, несколько изменив систему исходных постулатов. Теоретические исследования часто приводят к внутренне противоречивым выводам или несоответствию эмпирическим данным, поэтому любые ограничения модельных представлений могут сделать теорию нежизнеспособной.

Современная натуральная философия, вобравшая в себя опыт многовековых естественнонаучных исследований, обладает гибкой методологической основой, позволяющей варьировать аксиоматику и способы формализации практически любого процесса. Рассматривая природу как объект исследования, натурфилософы были вынуждены развивать разнообразные способы моделирования, исходя из универсальных принципов. Кроме того,



применение математического аппарата для формализации модельных представлений позволило накопить огромный опыт преобразования качественного описания исследуемых процессов в количественное, что особенно важно для решения квалиметрических задач.

Создание теоретических основ образовательной квалиметрии несколько затруднено терминологическими различиями между педагогической наукой и методологией современной натуральной философии. Однако возникающие проблемы компенсируются рядом бесспорных преимуществ:

Логическая обоснованность: Психолого-педагогический анализ дополняется математической составляющей, что позволяет минимизировать возможные ошибки и повысить точность выводов.

Статистическая согласованность: Статистические закономерности, которые обычно выглядят чужеродными в педагогических исследованиях, становятся естественным продолжением теоретических построений. Это не только подтверждает качественные выводы, но и позволяет установить степень соответствия эмпирических данных полученным количественным соотношениям.

Научная строгость: Образовательная квалиметрия приобретает черты строгой научной дисциплины, что обеспечивает инвариантность получаемых выводов и повышает их надежность.

Если чисто гуманитарная научная дисциплина находит адекватное выражение в формализованном модельном представлении, перед ней открываются новые перспективы. Логически обоснованные взаимосвязи становятся неотъемлемым атрибутом теоретических построений, что позволяет устранить субъективные составляющие формулируемых выводов.

Используя методологию современной натуральной философии в педагогических исследованиях, автору потребовалось адаптировать понятийный аппарат и переосмыслить содержание ключевых принципов существующих теоретических концепций. Поскольку законы натуральной философии направлены на описание элементов реальности с определенной степенью формализации, оказалось, что такой методологический подход полностью соответствует целям и задачам данного исследования. Взаимосвязь между квалиметрией и методами математической статистики делает теоретическое моделирование на основе методологии современной натуральной философии корректным, что подтверждается результатами исследования.

Методология образовательной квалиметрии предоставляет широкий



спектр инструментов и методов для объективной оценки качества образовательных процессов, программ и результатов. Применение квалиметрии позволяет выявить сильные и слабые стороны образования, определить направления для его улучшения и повысить эффективность образовательной деятельности. В условиях современного образования квалиметрия становится необходимым инструментом для обеспечения высокого качества образования и подготовки конкурентоспособных специалистов.

Литературы:

1. Гальтон, Ф. «Исследования в области человеческих способностей и их развития.» Лондон, 1884-1885.
2. Бине, А. «Экспериментальное изучение интеллекта». Париж, 1903.
3. Пирсон, К., Гальтон, Ф. «Грамматика науки». Лондон, 1892.
4. Кьюдер, Х.Ф., Ричардсон, М.В. «Вклад психологии в образование». 1929.
5. Рюлон, П.Ж. «Измерение способностей в различных областях среднего и высшего образования». Париж, 1905.
6. Ибел, Р.Л. «Использование психологических тестов в образовательном и профессиональном консультировании студентов колледжей». 1920.
7. Гласер, Р., Раш, Г. «Развитие критического мышления и его влияние на владение критическим мышлением в психологии». 1990.



TALABALARNI O'QITISHDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA VIRTUAL USULLARNI QO'LLASH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSINI O'RGANISH

V.A.KUZIBOYEV,
TDPU dekan o'rinbosari

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida virtual texnologiyalardan foydalanish yangilanadi.

Kalit so'zlar: virtual usullar, uzluksiz ta'lim tizimi, meros, musiqa, o'qitish, ta'lim, o'rganish.

В статье актуализируются применение виртуальных технологий в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: виртуальные методы, система непрерывного образования, наследие, музыка, обучение, воспитание, изучение.

The article updates the use of virtual technologies in the continuous education system.

Key words: virtual methods, continuous education system, heritage, music, training, education, study.

Sharq mutafakkirlarining merosi, ularning noyob qarashlari va fikrlari bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki ular o'quvchi yoshlarni o'z Vatanlarining haqiqiy vatanparvarlari sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Sharq mutafakkirlarining merosini sinchikovlik bilan o'rganish orqali biz ularning asarlarining ahamiyatiga tobora ko'proq ishonch hosil qilmoqdamiz.

Sharqning buyuk mutafakkirlarining madaniy merosining turli jihatlarini turli fanlar doirasida o'rganilmoqda, ammo bundan tashqari, Sharq mutafakkirlarining ilmiy ishlarini pedagogik oliy ta'lim muassasalarining musiqa fakultetlari talabalarini o'qitishda maqsadli qo'llash jarayoniga e'tibor qaratish juda muhimdir. Bu jarayon ko'p qirrali va shuning uchun nafaqat musiqa darslarida, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham o'tmish olimlarining merosini o'rganish, talabalarning e'tiborini Sharq mutafakkirlarining musiqiy va pedagogik faoliyati va tarbiyaviy amaliyotiga qaratish muhimdir. Ma'lumki, ularning barchasi ajoyib musiqachilar, o'qituvchilar bo'lib, musiqa va she'riyat haqida ilmiy risolalar yaratdilar.

Musiqiy pedagogika tarixi, umuman pedagogika singari, boy ilmiy, nazariy va amaliy merosga ega bo'lib, uni har tomonlama o'rganish, takomillashtirish va ko'paytirish kerak. Shunga asoslanib, musiqa san'ati va pedagogikaning ilg'or yo'nalishlariga muvofiq o'tmishdagi mutafakkirlarning musiqiy-pedagogik qarashlari, g'oyalari va tamoyillarini aktallashtirish zarur.



Musiqashunos kasbi eng murakkab kasblardan biridir, chunki u ushbu sohadagi mutaxassisdan keng va ko'p qirrali bilimlarni, tarixiy va zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonda yo'nalish qobiliyatini talab qiladi. Musiqa fakulteti talabasining barkamol rivojlangan shaxsini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari merosini bilish katta rol o'ynaydi, bu talabaning oliy o'quv yurtida o'qishi davomida doimiy ravishda amalga oshiriladigan va keyinchalik mustaqil amaliyotda davom etadigan ko'p bosqichli jarayondir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarini ilmiy va badiiy bilish metodologiyasi ko'p bosqichli tizim bo'lib, uning asosiy bosqichlari hissiy va mantiqiy darajalardir. Hissiy bilimlar darajasida, birinchi navbatda, she'riy miniatyuralar va g'azallar, rubaylar, muhammadlar, masnevar, so'ngra she'rlarga murojaat qilish, ularni o'zbek kompozitorlik ijodining vokal, vokal-xor va instrumental janrlari bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Mantiqiy bilimlarning keyingi darajasida Farabi, Navoiy, Jami, Bobur va Sharqning boshqa olimlari musiqasi haqidagi risolalarga murojaat qilish tavsiya etiladi. Musiqiy risolalarni tahlil qilish musiqa fakulteti talabasining ijodiy rivojlanishiga yordam beradi, unga o'z g'oyalari va fikrlarini ifoda etishda yordam beradi. Musiqa fakulteti talabalarini Sharqning buyuk mutafakkirlarining risolalari bilan tanishtirishda ularning hozirgi zamon musiqa san'ati va pedagogika fanining rivojlanishi uchun muhimligini ta'kidlash muhimdir. Turli xil tarixiy davrlarda Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan risolalar o'z davri, uslubi, fan va ta'lim darajasining izini o'z ichiga oladi va o'qituvchining izohlari, tushuntirishlari, tegishli izohlarini talab qiladi, chunki kontseptual apparatning kasbiy mahorati musiqa fakulteti talabasining amaliy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir.

Musiqiy ijro etishning mohiyati musiqachi har kuni muloqot qiladigan, notalar, kalitlar, torlar va pedallar bilan aloqani his qiladigan asbobning xususiyatlarini, nazariy mexanizmlarini bilishdan iborat. Tasavvurlar musiqachiga badiiy obraz va uning ovoqli timsolini yaratishga yordam beradi.

Musiqa va ijro jarayonining bu xususiyatlari musiqachining adabiy ijodiy portretini yaratgan musiqa fakulteti talabasining ilmiy e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Sharq mutafakkirlarining merosini o'rganishda virtual usullardan foydalanilgan holda, talaba fikrining hissiy bilimlardan mantiqiy bilimga bosqichma-bosqich harakatining algoritmik tizimini diqqat bilan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga yoqadigan buyuk olimlarning maksimallari, so'zlari va aforizmlarini yozish, ularni kundalik nutqda va sahnada va auditoriyada ijro etishda



ishlatish foydalidir. Musiqiy asarlarni o'rganish jarayonida olingan tushunchalar, qanotli iboralar bilan so'z boyligini boyitish talabning intellektual, gumanitar, gumanistik tarbiyasi va ilmiy va badiiy madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan juda foydali.

Tabiiyki, musiqa fakultetlari talabalari kontsertlarda qatnashadilar va ushbu amaliy faoliyat sohasi yanada kengroq, uslubiy asoslangan va ishlab chiqilishi kerak. Mahallalarda olib borilayotgan musiqiy ma'rifiy ishlarga alohida e'tibor qaratish, jamiyatning turli qatlamlariga Sharqning buyuk mutafakkirlari va ularning musiqiy faoliyati haqida so'zlab berish, musiqa fakultetlari talabalarini o'zbek xalq cholg'u asboblari ma'ruzalarga jalb etish zarur. Sharq mutafakkirlarining musiqiy merosini bilishning bunday shakli, bilishning hissiy darajasiga, musiqani professional ilmiy sharhlar bilan eshitish idrokiga asoslanib, musiqiy san'atni hissiy va psixologik idrok etish orqali atrofda dunyoni mantiqiy bilish darajasiga olib keladi.

Musiqa fakulteti talabasi musiqa asbobini qiziqarli va mazmunli ijro etishi uchun uning ongini Sharqning buyuk mutafakkirlari merosini anglash, talaba shaxsiyatining individual ijodiy rivojlanishi va kelajakda o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon qilish uchun yo'naltirish kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan virtual texnologiyalardan foydalanish ba'zi usullarga asoslanadi.

Ular orasida: dialog o'qituvchining bilim jarayoniga maqsadli munosabatidan hayratda qolgan talabalar bilan bevosita muloqot shakli sifatida;

Sharqning ilmiy fikrining ma'lum bir vakiliga ustunlik berish, uning faoliyati haqidagi bilimlar talabalar inshosida aks etadi;

Sharqning buyuk shaxslari haqidagi g'oyalarni boyitish nuqtai nazaridan spektakllar, ko'rgazmalar, muzey eksponatlariga tashrif buyurish;

Sharq mutafakkirlarining madaniy merosini yoritish sohasidagi Internet-resurslar materiallarini tahlil qilish. Bu shuni anglatadiki, Sharqning buyuk mutafakkirlarining madaniy merosini o'rganish atrofda dunyoni bilish, borliqni falsafiy tushunish, hayotning haqiqiy hodisalarini o'rganish uchun asosiy yo'ldir.

Sharqning buyuk tarixiy shaxslarining hayotiy va ijodiy tajribasi talabalarga olijanob va yuksak his-tuyg'ular va fikrlarni tarbiyalash uchun qimmatli ozuqaviy manba beradi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari merosini o'rganishda virtual usullardan foydalanishni umumlantirib, shuni ta'kidlash kerakki, o'tmishdagi buyuk



mutafakkirlarga qaratilgan tarixiy retrospektsiya obyektivi orqali atrofkdagi dunyoni bilish yo‘llarini o‘rganish usullari talabalarning ilmiy va ijodiy tafakkurini uyg‘otadi, o‘qituvchi ishining kasbiy fazilatlarini rivojlantiradi va talabalarni ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan boyitadi.

Zamonaviy texnologiyalar o‘quv jarayoniga faol kirib, o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Onlayn kurslar, video ma‘ruzalar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv vositalarni o‘z ichiga olgan virtual ta‘lim usullari turli sohalarda, shu jumladan, musiqa madaniyatida tobora ommalashib bormoqda.

Dissertatsiya tadqiqotini o‘tkazish jarayonida biz musiqa madaniyati bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarida virtual ta‘lim usullarini qo‘lladik, bu o‘qituvchilar va talabalarga onlayn makonda o‘zaro muloqot qilish imkonini berdi turli xil musiqa materiallari, video darsliklar, jonli ijro yozuvlari va arxivlardan foydalanish, bu ularning ta‘lim tajribasini boyitadi.

Bu formatlarning moslashuvchanligi va xilma-xilligini hisobga oladi, chunki virtual usullar turli formatlar: audio, video va matn materiallaridan foydalangan holda ta‘limni talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi.

Virtual usullar har bir talabaga shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta‘minlaydi, chunki virtual musiqa texnologiyalari zamonaviy texnologiyalar yordamida musiqa madaniyatida amaliy ko‘nikmalarni egallashga imkon beradigan maxsus dasturiy ta‘minotni talab qiladi.

Shu bilan birga, virtual vositalar musiqa yaratish uchun dasturlar va ilovalar bo‘lib, talabalarga asboblari va kompozitsiyalarni chalishni mashq qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida o‘qituvchilar talabalarga talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab turli xil murakkablikdagi topshiriqlarni taklif qilishdi. Oddiy asbob mashqlaridan tortib, murakkab kompozitsiyalar yoki texnikalar ustida ishlashgacha. Ushbu yondashuv virtual texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning o‘quv jarayonini diversifikatsiya qilishga imkon berdi.

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. - T.: O‘qituvchi, 1997.
2. Кадыров Р.Г. Музыка и педагогика: Монография. - Т.: Complex Print, 2022. - 376 с.



BOLA MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA «GURUH SOATLARI»NI TASHKIL ETISH

G.A.SAMANDAROVA,

Mazkur maqolada bola shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllanishida ijtimoiy tarbiyaning ahamiyati, uning asosi va ta'sir etuvchi vosita hamda usullari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, mamlakatning bugungi kun taraqqiyoti va undagi islohotlarida maktabgacha ta'lim tizimidagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, «Ma'naviyat kuni» doirasida «Guruh soat»larini tashkil etish yuzasidan tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: *Ijtimoiy tarbiya, milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, baynalmillalik, atrof-muhit, tarbiyalanuvchi, «Guruh soati», barkamol avlod, «Oila – mahalla – ta'lim tashkiloti», Jamoat kuzatuv kengashi.*

В данной статье говорится о значении социального воспитания в формировании духовного образа ребенка, его основе и средствах и методах воздействия. Также в условиях сегодняшнего развития и реформирования страны имеются рекомендации по стабилизации духовной среды в системе дошкольного образования, организации «Групповых часов» в рамках «Дня духовности».

Ключевые слова: *Социальное воспитание, национальные ценности, фольклор, интернационализм, среда, студент, «Групповой час», Идеальное поколение, «Семья – соседство – образовательная организация», Общественный наблюдательный совет.*

This article talks about the importance of social education in the formation of a child's spiritual image, its basis and means and methods of influence. Also, in the conditions of today's development and reform of the country, there are recommendations for stabilizing the spiritual environment in the preschool education system, organizing "Group hours" as part of the "Day of Spirituality".

Key words: *Social education, national values, folklore, internationalism, environment, student, «Group Hour», Ideal Generation, «Family – Neighborhood – Educational Organization», Public Supervisory Council.*

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bu jarayon ma'naviy tamoyillarga asoslangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga qarab belgilanadi va O'zbekiston kelajagini barpo etuvchi fuqarolar uchun zarur bo'lgan ma'naviy-xalqiy fazilatlarining asoslarini shakllantiradi.



Maktabgacha tarbiya yoshi shaxsning dastlabki «ochilish» davri hisoblanadi. Ma'naviy tarbiya ikki tomonlama jarayonga ajratadigan bo'lsak, birinchi tomonini kattalar, ota-onalar, tarbiyachilarning farzandlariga faol ta'sir ko'rsatishida; ikkinchidan bolalarning xatti-harakatlari, his tuyg'ulari va munosabatlarda namoyon bo'ladigan tarbiyaviy faoliyatda ko'rish mumkin. Demak, tarbiya mazmunini belgilab olishda, turli xil ma'naviy tarbiya usullarini qo'llash orqali ota-ona, tarbiyachi tarbiyaning natijalarini, bolalarning ma'naviy barkamolligini diqqat bilan tahlil qila borishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini shakllantirishda bolaning yosh xususiyatini inobatga olish, muammolik va natijani oldindan ko'ra bilish, tizimlilik, hamkorlik, insonparvarlik, nazariya amaliyot bilan aloqasi, tarbiya jarayonida milliy pedagogika asoslarida to'g'ri foydalanish, ta'lim tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish tamoyillariga amal qilish talab etiladi.

Ma'naviyatni shakllantirish mexanizmi tarbiyalanuvchilarga nimalarni o'rgatish va qanday qilib o'rgatish kabi savollarga javob berishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy fazilatlarini dastlabki kurtaklari axloq-odob qoidalar va milliy o'zlik to'g'risidagi dastlabki ta'savvurlarini shakllantirishdan boshlanishi kerak deb o'ylaymiz. Tarbiyalanuvchilarning sog'lom va ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishida pedagogik jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki tashkilotdagi ta'lim tarbiya jarayoni bola ma'naviyatini shakllantirishga imkon beradi.

Pedagogik jarayonini tashkil etish xususiyatlarini va bolalar axloqiy tarbiyasiga rahbarlik metodlarini yoritishdan oldin ularning yosh xususiyatlariga xarakteristika beriladiki, uni hisobga olish maktabgacha yosh davrining har bir bosqichidagi asosiy vazifalarni ajratib olish imkonini beradi. V.G.Nechaeva va T.A.Markovalar bunday xarakteristikani uchta yosh: kichik, o'rta va katta yosh bosqichlari bo'yicha birgalikda tasavvur etish mumkin degan fikrdan kelib chiqadilar. Bu shu bilan bog'likki, uch va to'rt yosh bosqichidagi bolalarni tarbiyalashda asosan xuddi shu vazifalar hal etiladi, ularni amalga oshirish metodlarida ham jiddiy farq yo'q. Garchi maktabgacha yoshning har bir kelgusi bosqichida bola axloqiy sifatlarini takomillashtirish jarayoni ro'y bersada, besh-yetti yoshli bolalar tarbiyasiga nisbatan ham xuddi shunday deyish mumkin.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida axloqiy tarbiya kompleks tarzda amalga oshiriladi, biroq har bir bola faoliyatida o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadiki, ular u yoki bu vazifani eng muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, o'yinda ijobiy o'zaro munosabatlar, axloqiy his-tuyg'ular;



mehnatda mehnatsevarlik, kattalar mehnatiga hurmat, shuningdek uyushqoqlik, mas'uliyat, burch hissi; mashg'ulotlarda g'oyaviy yo'nalganlik asoslari, ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

Bolalarning ma'naviy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishi atrofida odamlar bilan o'zaro munosabatlarida nima yaxshiyu va nima yomonligini yanada chuqurroq anglab yetishga yordam beradi. Bolalarda axloq-odob tasavvurlarini va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ham mashg'ulotlarda, ham kundalik hayotda izchil, bir maqsadga qaratilgan holda olib borilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya usullarini shartli ravishda bir necha guruhlarga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh usullari bolalarning odatiy xatti-harakatlarni shakllantirishni ta'minlaydi. Ularga bola xulq atvorini ijobiy shakllariga o'rgatish usullarini ko'rsatish mumkin. Buning asosiy sababi bolalar turli vaziyatlarda me'yorlar va qoidalarga muvofiq harakat qilishlari, masalan salomlashish va kechirim so'rash, xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, savollarga xushmuomalalik bilan javob berish, gullarni parvarish qilish, boshqa bolalarga yordam berish va o'zaro yordamlashish, keksalarga g'amxo'rlik qilish, kamtarlikka o'rgatiladi. Bola xatti-harakatlarining motivatsiyasi uning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. Shu sababi muntazam xulqi va harakatlarning shakllanishi uchun muntazam o'rgatib borish juda muhimdir.

O'rgatish usuli kattalar yoki boshqa bolalarning namunasi bilan birlashtirilsa, katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bolaning katta kishi yoki tengdoshi namunasi ko'ra harakat qilishi uchun, ularga o'xshashni istashlarini so'rab, o'xshashga istakni kuchaytirish kerak. O'xshash orzusi taqlid orqali amalga oshiriladi. Agar bola biror kishi haqida to'liqlanib, hayrat bilan gapirsa, bu uning o'sha kishi faoliyati, xarakteridan ta'sirlanganini anglatadi.

Metodlarning ikkinchi guruhi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tasavvurlar, mulohazalar, baholarni shakllantirishga qaratilganidir. Bunga tarbiyachining odob-axloq haqidagi suhbatlari, badiiy adabiyotlarni o'qish va hikoya qilib berish, kartinalar, rasmlar, diafilmlar, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, radio eshittirishlarni tinglash va muhokama etish kiradi. Bu vositalar, metodlar va usullarni, birinchidan, butun guruh bilan mashg'ulot o'tkazishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda MTTda ta'lim-tarbiya programmasi asosida barcha bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan eng murakkab bilimlar sistemalashtirilgan holda beriladi.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagilar bo'lishi lozim:



– tarbiyada ulg‘ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o‘g‘il-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e‘tiborda tutilishi;

– milliylikning o‘ziga xos an‘analariga tayanish. Lekin tarbiyaning milliy «bunyodkorligi» yosh avlodning ko‘pmillatli va jahon madaniyati boyliklariga qiziqishlarini, intilishlarini inkor qilmaslik;

– tarbiyalanuvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish. Bola, o‘smir, yigit va qizlar ta‘lim dargohida tahsil olayotgan chog‘ida nafaqat bo‘lg‘usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar. Ta‘lim tashkilotlarida bolalar yosh jihatlariga mos zarur, qiziqarli, to‘laqonli hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijtimoiy-ko‘ngilochar va shunga o‘xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimki, natijada o‘quvchilar ko‘ngillari tusagan ishga qo‘l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o‘zlariga ishonchlari ortsishi, axloqlari barqaror bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, MTT da 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyalanib ta‘lim oladi. O‘quv yili deb atalgan oraliq 36 haftani tashkil etadi. Tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, MTTda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazish bilan bir qatorda ilk tushunchalarni singdirib borish imkoniyati ham mavjud. Jumladan, Respublika miqyosidagi tizim tashkilotlarida haftaning har juma kuni «Ma‘naviyat kuni» deya belgilangan bo‘lsa, huddi shu tarzda MTTlarida «Ma‘naviyat kuni» doirasida «Guruh soatlari»ni tashkil etish mumkin. Bunda har bir guruh tarbiyachilari tomonidan olib boriladigan bir soatlik mashg‘ulot quyidagi namunaviy reja asosida tashkil etiladi:

Tarbiyalanuvchilarda xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini rivojlantirish, axborotlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Guruh soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. Shuningdek, Guruh soatlar orqali tarbiyalanuvchilarda to‘g‘ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, o‘z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to‘garaklarni to‘g‘ri tanlash kabi qobiliyatlar shakllantiriladi. Guruh soat dasturlari vatanparvarlik, axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigiyenik, ekologik hamda estetik tarbiya, shuningdek, kasb-hunar yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Guruh soatlarning mazkur yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, bola shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhleri uchun tuzilgan «Guruh soatlar uchun namunaviy mavzular rejasi» mazmunan Guruh soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuziladi. Shu bilan birga, ushbu dastur va qo'llanmada bugungi kunda tarbiyachilar uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida «Guruh soat»larining mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan «Guruh soati» mashg'ulot ishlanmalarida mazmunan tarbiyalanuvchilarida Guruh soati – axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o'tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida tavsiyalar beriladi.

Guruh soatlarini quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma'ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Guruh soatlarida foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan'aviy tarzda tashkil etish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda xalqimizda yoshlikda olingan tarbiya toshga bitilgan bitik kabidir degan maqol mavjud. Demak, har tomonlama yetuk, barkamol – ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

– guruh tarbiyachilari o'z faoliyatini tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etishi, bunda:

a) tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida:

– tarbiyalanuvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

– tarbiyalanuvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurti-



mizdagi bunyodkorlik ishlari, inshootlar va ma'rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

– guruhda tarbiyalanuvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

– tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'rini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish;

– tarbiyalanuvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo'nalishida:

– barkamol avlodni tarbiyalashda «Oila – mahalla – ta'lim tashkiloti» hamkorligidagi Jamoat kuzatuv kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida guruh ota-onalar majlislarini o'tkazib borish;

– tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ota-ona qarovisiz qolgan, vasiylik va homiylikka berilgan bolalarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

– ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o'tkazgan tarbiyaviy ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

– tarbiyalanuvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

v) tarbiyalanuvchilarning vaqtlarini mazmunli tashkil etish yo'nalishida:

– tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab til to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish;

– qobiliyatli va iste'dodli tarbiyalanuvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

– milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish;

– turli (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar



va boshqalar) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda guruh tarbiyalanuvchilarining faol ishtirokini ta'minlash;

– sog'lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor berish;

– ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimlari, pedagoglari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish;

– tarbiyalanuvchilarning ta'lim muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena qoidalari va me'yoriy talablariga rioya qilishini ta'minlash lozim.

Shundaygina ta'lim-tarbiyani, ayniqsa, ma'naviy tarbiyani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlashimiz va bu ishlarni olib borishda samarali usul hamda vositalarni tanlashimizda zamin yaratilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4307-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-son Qarori.

4. Samandarova G.A. - Tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish strategiyasi. Metodik qo'llanma. - T.: «ILM-MA'RIFAT» nashriyoti, 2024-y.

5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent, «Ma'naviyat» 2014.

6. Ibrogimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika, Toshkent, TDPU nashriyoti, 2022. -600 b.

7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022.

8. M.Sharifxo'jayev. Z.Davronov. «Ma'naviyat asoslari» T-2006.

9. V.G.Nechaevava, T.A Markova «Bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya» T.: «O'qituvchi»1990.14 b.

10. T.Ismoilov. «Tarbiya» Namangan-2023.



ART-PEDAGOGIKANING O'QUVCHI YOSHLAR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

D.I. CHORIYEVA,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Yakkasaroy tuman bo'linmasi bosh mutaxassisi

Ushbu maqolada amaliy dars jarayonlarida metodik material sifatida badiiy terapiya, badiiy ta'lim va badiiy pedagogika amaliyotida qo'llaniladigan metod va vositalardan foydalanish uchun kerakli ma'lumotlar keltirilgan. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida ART – pedagogika vositasidan samarali foydalanishi natijasida bolaning ijod qilish faoliyatiga yordam berishi, ularning o'quv va ijodiy faoliyatlarini uchun maksimal shart-sharoit yaratishi va ijtimoiy va etik qobiliyatlarining to'liq ochilishiga imkon yaratishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: art pedagogika, badiiy pedagogika, badiiy pedagogik faoliyat, san'at, san'at vositasida ta'lim, ta'lim jarayoni, «badiiy-pedagogik faoliyat», «badiiy pedagogik o'zaro ta'sir», «badiiy-pedagogik jarayon», «badiiy-pedagogik ta'minot», «badiiy-pedagogik vositalar».

В данной статье представлена необходимая информация для использования методов и средств, применяемых в практике арт-терапии, художественного образования и художественной педагогики, в качестве методического материала в процессах практических занятий. В процессе практических занятий говорится, что в результате эффективного использования ВРТ – педагогического инструмента, он помогает творческой активности ребенка, создает максимальные условия для его учебной и творческой деятельности, дает возможность всестороннего развития его социальных и социальных способностей. этические способности.

Ключевые слова: художественная педагогика, художественная педагогика, художественно-педагогическая деятельность, искусство, воспитание через искусство, образовательный процесс, «художественно-педагогическая деятельность», «художественно-педагогическое взаимодействие», «художественно-педагогический процесс», «художественно-педагогическое обеспечение», «художественно-педагогические инструменты».

This article presents the necessary information for the use of methods and tools used in the practice of art therapy, art education and art pedagogy as methodical material in practical lesson processes. In the process of practical training, it is said that as a result of the effective use of ART - pedagogic tool, it helps the child's creative activity, creates maximum conditions for their educational and creative activities, and enables the full development of their social and ethical abilities.

Key words: art pedagogy, artistic pedagogy, artistic pedagogical activity, art, education through art, educational process, «artistic-pedagogical activity», «artistic-pedagogical interaction», «artistic-pedagogical process», «artistic-pedagogical supply», «artistic-pedagogical tools».



Jahon iqtisodiy makoniga integratsiyaga yo‘naltirilgan O‘zbekiston davlati fuqaroning ijodiy shaxsini tarbiyalashi kerak, ammo madaniy va ijodiy rivojlanishning aniq texnologiyalari hali ishlab chiqilmagan. Bunday vaziyatda innovatsion intizomni joriy etish Art-pedagogika va Art-terapiya pedagogik ta’limga ushbu muammoning zarur yechimlarini ishlab chiqish va sinab ko‘rishga yordam beradi. Ushbu fanlar pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy-madaniy faoliyat kabi fanlarning birlashishi chegarasida shakllangan. XX asr oxiridan boshlab pedagogika izo-terapiya doirasida Art-terapiya imkoniyatlarini alohida e’tibor bilan o‘rganadi. Rossiyada Art-terapiya maktabining asoschisi A.I.Kopitin. «Bolalar va o‘spirinlarning Art-terapiyasi» kitobida Art-terapiya atamasi «mijozning vizual faoliyati va psixoterapevtik munosabatlar sharoitida qo‘llaniladigan va davolash, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, reabilitatsiya va o‘qitish uchun ishlatiladigan psixologik ta’sir usullari to‘plami» sifatida ochib berilgan. Uzoq vaqt davomida Art-terapiya atamasining ta’rifi hech qanday tarzda ta’lim tizimiga mos kelmadi. Biroq, keyinchalik, E.V.Taranova ta’kidlaganidek, 1997-yilda Yu.S. Shevchenko va L.V.Krepitsning «Bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda artterapiya va artpedagogika tamoyillari» asari nashr etilgandan so‘ng, «Art-terapiya» tushunchasi «Art-terapiya» va «Art-pedagogika»ga bo‘lindi. Shu paytdan boshlab badiiy pedagogika badiiy ta’limda mustaqil yo‘nalish sifatida «yashash huquqini» oldi deb aytish mumkin. San’at pedagogikasi ta’lim doirasida nafaqat badiiy ta’limni, balki badiiy vositalar yordamida tuzatish va rivojlanish jarayonining barcha tarkibiy qismlarini ham ko‘rib chiqishga imkon beradi. Tuzatish ishlarida san’atning muhim rolini xorijiy pedagogika vakillari E.Segen, J.Demor, O.Dekroli, L.S.Vgotskiy, A.I.Graborov, E.A.Ekjanova, T.S.Komarova va boshqalar ta’kidladilar. Ularning ta’kidlashicha, bolalarning badiiy faoliyati ularning hissiy rivojlanishini ta’minlaydi, ularning samarali motivatsion va ehtiyojli tomonlarini shakllantiradi faoliyat, idrok, ixtiyoriy e’tibor, tasavvur, nutq, nozik vosita qobiliyatlari, qo‘llar, aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. San’at asarlarini idrok etish yoqimli taassurot qoldirishi va salbiy his-tuyg‘ularni ijobiy his-tuyg‘ularga aylantirishga yordam beradi. Badiiy ijod tasvirlari ong osti jarayonlarining barcha turlarini, shu jumladan qo‘rquv, ichki nizolar, bolalik xotiralarini aks ettiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda juda muhim jihat ajralib turadi: badiiy pedagogika sizga turli toifadagi o‘quvchilar bilan ishlashga imkon beradi. San’at pedagogikasi muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashdan tashqariga chiqadi, lekin ayni paytda badiiy ta’lim va estetik tarbiya sohasini takrorlamaydi. Ya’ni, «san’at pedagogikasi» tushunchasining mazmuniga faqat muammolari bo‘lgan bolalarni maxsus badiiy o‘qitish kiritilmasligi kerak, shuningdek, badiiy pedagogik faoliyatning ma’nosini rasm chizish ko‘nikmalarini



o'rgatishga kamaytirmaslik kerak, balki badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish va shaxsning ijtimoiy moslashuvini san'at vositalari bilan qo'shish kerak.

San'at pedagogikasi yuqori sifatli va samarali o'qitish va tarbiyalashga yordam beradigan vositalar, usullar va texnologiyalarni o'z ichiga olganligi sababli, uning vazifalari ijobiy, motivatsion ta'lim va tarbiya jarayonini, shuningdek shaxsiy rivojlanish sharoitlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu muammolarni hal qilish hayot resurslarini anglash va faollashtirish orqali rivojlanish va harakat san'at pedagogikasida texnik usullarni o'qitish pedagogik vazifalarga erishish vositasi sifatida qaraladi.

Badiiy materiallar bilan ishlashning badiiy texnikasi va texnologiyalarini o'zlashtirish ushbu materiallarning imkoniyatlarini o'rganish, ba'zan ular bilan o'ynash, kutilmagan kombinatsiyalar va texnikalarni aralashtirish orqali amalga oshiriladi. Badiiy materiallar bilan ishlash qobiliyati ko'proq erkinlikka olib keladi, rivojlanishga yangi turtki beradi, o'zini namoyon qilishni rag'batlantiradi. Badiiy pedagogik faoliyat uchun badiiy materiallarni grafik, rasm, taqlid (san'at va hunarmandchilik uchun) deb tasniflash mumkin.

Amaliyotda art-pedagogika psixolog va psixoterapevtlar tomonidan qo'llanib kelinayotgan art-terapiya o'rni, ya'ni o'quvchilarning xulqi, ularning shaxsi va xarakterini korreksiyalash, dars jarayonida yaxshi munosabat muhitini o'rnatish, bolalar va kattalar munosabatini to'g'rilash va hokozalarda ishlatilib kelinmoqda. Art-pedagogika faqat boshlang'ich sinflarda tasviriy va musiqiy faoliyat, dars jarayonini tinchlantirish maqsadlarida qo'llanilmoqda. «Artpedagogika», «art-terapiya» terminlari to'liq aniqlanmagan bo'lib, ular turlicha talqin qilinmoqda, turli ma'nolarda ishlatilib, turli xussiyatlarda ifodalanmoqda. Bu texnologiyalarning qo'llanilish imkoniyatlari ham turlicha. Pedagoglar va olimlar (V.P.Anisimov, N.Y.Sergeyeva, M.Y.Alekseyeva) art-pedagogika va art-terapiyani quyidagicha tushunishadi:

- shakllangan san'at vositasida tarbiyalashning eski stereotip tushuntiruvchi ko'rgazmali metodlariga (an'anaviy, avtoritar) muqobil sifatida;

- turli pedagogik masalalarni yechishda san'atning universal yo'llari, umumiy mexanizmi, tamoyil va qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika fanining amaliy yo'naltirilgan yangi yo'nalishi sifatida;

- bolaning badiiy madaniyati asoslarini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi jarayonning (rivojlantirish, tarbiyalash, o'qitish va korreksiyalash) barcha komponentlarini o'zida mujassam etgan san'at vositalari birligi sifatida;

- bu alohida yondashuv bo'lib, unda urg'u san'atni o'rganishdan subektiv tajribaga (refleksiya) ko'chadi, ya'ni (o'quvchining) o'zining holati, sezgisi, kuyinchakligi, tafakkur yuritishi, olamga va o'z-o'ziga munosabati sifatida.

Hozirgi paytda fanda art-terapiya fanlararo bilim sohasi sanalib, u o'zida tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik, psixologiya va boshqa ilm sohalarini mujassam etadi. Uning mohiyati san'atning subektga terapevtik va korreksion ta'siri sanaladi va



u o'quvchining psixik travma olgandagi holatini badiiy-ijodiy faoliyat orqali tuzatishga qaratilgan. Art-pedagogikaning asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirishdan iborat va u korreksion-shaxsiy va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi. Bolalarning turli ruhiy sifatleri hamda shaxsning badiiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlarini rivojlantirishga, uning mikro va makro muhitda jamoaviy va madaniy faoliyatda ishtirok etishi, turli tajovuzlarni bartaraf etishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Art-pedagogika rivojlanishida muammosi bor bolalarni dunyoning turfa go'zalliklarini ko'rish hamda faoliyatning badiiy turlarida dunyoni o'zgartirishga o'rgatadi. San'at (bolaga) dunyoni anglashda ijobiy manba sanaladi, u bolada kreativlik qobiliyatini dunyoga keltiradi. Shuning uchun unga ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning samarali vositasi sifatida qarash mumkin. Art-pedagogika va art-terapiyani o'rganish va rivojlantirish O'zbekistonda yangicha yo'nalishdagi maktablarni takomillashtirishning navbatdagi qadami sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining badiiy pedagogika texnologiyalariga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida ART – pedagogika vositasidan samarali foydalanishi natijasida:

- bolaning ijod qilish faoliyatiga yordam beradi;
- bolalarning o'quv va ijodiy faoliyatlari uchun maksimal shart-sharoit yaratadi;
- bolalarning ijtimoiy va etik qobiliyatlarining to'liq ochilishiga imkon beradi.

Art pedagogika o'quvchilarda tasavvurni, e'tiborni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, o'z his-tuyg'ularini va kayfiyatini erkin ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga, jamoada ishlashga yordam beradi. Art pedagogikada didaktik maqsadlardan ko'ra ta'lim va rivojlanish maqsadlari ustunlik qiladi. Ijodiy faoliyat jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligi o'quvchining hissiy va shaxsiy rivojlanishi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi ochish, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirish jarayonlariga yordam beradi hamda amaliy tarzda amalga oshiradi. Boshqa tomondan, badiiy pedagogik usullardan foydalanish o'qituvchiga bolalarni yaxshiroq tushunishga, ularning shaxsiy va ijodiy imkoniyatlarini, psixologik xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi.

